


ISBN 978-9943-4483-2-2



9 789943 448322

---

**F. Masharipov, M. Masharipova**

---

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI

F. Masharipov, M. Masharipova

**BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI  
TAYYORLASH**

(Jismoniy madaniyat yo'nalishi bakalavlari uchun  
uslubiy qo'llanma)

*Ushbu uslubiy qo'llanma Urganch davlat universiteti ilmiy-uslubiy  
kengashining qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.*

**UDK: 378.225(072)**

**KBK: 74.58**

**M34**

**F. Masharipov, M. Masharipova.** Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash. Uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir **A. Sharipov**. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti. Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo'limi, 2015. 56 bet.

**KBK 74.58ya73**

Ushbu qo'llanma jismoniy madaniyat yo'nalishi bakalavlarini ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishga mo'ljallangan bolib, unda bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash bo'yicha zamonaviy bilim va tajriba-lar umumlashtirilgan. Ilmiy faoliyat ishlarini olib borish masalalari batatsil ko'rib chiqilgan.

Qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlarining jismoniy madaniyat yo'nashlari bakalavrлari va bitiruv malakaviy ishlarining ilmiy rahbarlari uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir**

**A. Sharipov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**Taqrizchilar:**

**O'. Matnazarov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,

**V. Rahimov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**ISBN: 978-9943-4483-2-2**

© **UrDU noshirlik bo'limi, 2015.**

© **F. Masharipov, M. Masharipova.**  
Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash.  
Uslubiy qo'llanma.

## KIRISH

Sog'lom fikrli, chuqur bilim, keng dunyoqarash va ma'naviy jihat-dan yuksak salohiyatga ega avlodni tarbiyalash masalasi davlatimiz si-yosatining eng muhim ustuvor yo'naliishlaridan biridir. Bugungi kunda har tomonlama yetuk, salohiyatlri, ma'nan boy barkamol avlodni voyaga yetkazish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilim berishning sifati-ni oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimining eng asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan bir qator-da, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilishni davr taqozo etmoqda. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarida professor-o'qituvchilar rahbarligida ko'plab talaba va magistrlarimiz ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullan-moqdalar. Ta'lim muassasalarida talabalarga ilmiy tadqiqot yo'naliishlari bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni ishlab chiqish, talabalarni tanlangan ilmiy tadqiqot yo'naliishi bo'yicha ta'lim texnologiyalari asosida ilmiy ishlarini olib borishi zarur.

Bu borada kafedralarda profesor-o'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan bir qatorda, talabalarning bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik ishlarini yuksak nazariy, ilmiy-uslubiy va kasbiy darajada o'tkazishdan iborat. Shu maqsadda jismoniy manda-niyat yo'naliishi bo'yicha bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash yuza-sidan uslubiy ko'rsatma va tavsiyalarni qamrab olgan ushbu qo'llanma yaratildi.

Uslubiy qo'llanmada ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, tadqiqot vazifasi, uslublari va ularni tashkil etish, tadqiqot natijalarini va ularning tahlil etish bo'yicha tavsiyalar bayon qilingan hamda bitiruv malakaviy ishini yozish, rasmiylashtirish va himoyaga tayyorlash yuzasi-dan amaliy maslahatlar berilgan.

## I BOB. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA ILMIY TADQIQOTLAR

### 1.1. Ilmiy tadqiqot olib borishning umumiy tavsifi

Ilmiy tadqiqot ishlari keng ijodiy faoliyat va tinimsiz mehnat demakdir. Bu yo‘lda tadqiqotchini juda ko‘p xilma-xil qiyinchiliklar kutadi, ularni yengish uchun esa kuchli bardosh, qat’iyat lozim. Boshlovchi tadqiqotchilar, odatda, o‘z ishlarini qanday tashkil etishni, uni qay yo‘sinda olib borishni bilmaydilar.

Har qanday ilmiy tadqiqot quyidagi asosiy, mantiqan o‘zaro bog‘liq bosqichlarga bo‘linishi mumkin:

- tadqiqot mavzusini tanlash. U, albatta, mazkur tadqiqotning obyekti sifatida tanlab olingan masalaning o‘rganilganlik darajasini aniqlashga, ilmiy ishlanmalarining muayyan usuliyatini qo‘llashning mavjud imkoniyatlariga qarab mo‘ljal olishga asoslanadi hamda tadqiqotning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish bilan yakunlanadi;

- ish rejasini tuzish, xususan, tadqiqot usullarini o‘zlashtirish hamda uning asosiy bosqichlarini belgilashda o‘z aksini topadigan uzil-kesil qarordir;

- tadqiqot materiallarini yig‘ish, to‘plash va ularga dastlabki ishlov berish, bu ish mazkur ilmiy tadqiqot oldida turgan vazifalarga va ularni hal etish uchun tanlangan usullarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi;

- ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish bajarilgan ishlarni jamlash hamda tadqiqot natijalari bo‘yicha aniq xulosalar chiqarish bilan yakunlanadi;

Ilmiy tadqiqotning sanab o‘tilgan bosqichlari nafaqat o‘zaro bog‘liq, balki ularning biri ikkinchisiga singib, kirishib ham ketgan. Izlanish jarayonida tadqiqotchi muntazam ravishda bajargan ishlariga tuzatishlar, o‘zgartishlar kiritib turadi. Masalan, ish davomida yig‘ilgan ma’lumotlarning sifatiy tavsifnomasi haqida yetarlicha aniq tasavvur paydo bo‘lgach, tadqiqotning nomlanishi, maqsad va vazifalariga anqlik kiritishga to‘g‘ri keladi yoki tadqiqot materiallarini tahlil qilish hamda umumlashtirish chog‘ida qo‘sishmcha ma’lumotlar olish zarurati paydo bo‘ladi. Bularning barchasi tadqiqotchiga material yig‘ish va to‘plash bilan bog‘liq keyingi ishlarga o‘z vaqtida o‘zgartishlar kiritish, demak, vaqt va mehnati tejash imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyati uning qanday tuzilganligi va tad-

qiziqot uslublarinii to‘g‘ri qo‘yilganligida, shu bilan birga, izlanuvchining tanlangan mavzuga qanday munosabatda ekanligiga ham bog‘liqdir. Ishga kirishar ekan, tadqiqotchi o‘zida tanlab olingen mavzuga chuqur ilmiy qiziqish his etishi, bor vujudi bilan unga berilib, doimo u haqda o‘ylashi, o‘z oldidagi tadqiqot masalalarini yechishning eng samarali yo‘llarini izlashi lozim. Shuningdek, ilmiy izlanishlar olib borishga intilayotgan tadqiqotchining umumiy va maxsus tayyorgarligi tadqiqot hajmi hamda mavzuning mazmuniga muvofiq bo‘lishi kerak.

Oliy ta’lim muassasida talabalar ilmiy faoliyati referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari shaklida, bakalavriyat yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishning to‘rtinchi bosqichida tanlangan mavzu bo‘yicha bitiruv malakaifiy ishining himoyasi o‘tkaziladi.

Talaba tanlangan mavzu bo‘yicha mакtab va maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasalarida, kasb-hunar kollejlarida, BO‘SM (bolalar va o‘s-mirlar sport mакtabi)larda, shu bilan birga, ish beruvchi korxona va tashkilotlarning buyurtmasiga asosan, ilmiy tadqiqot ishlarini olib bora-dilar. Bu talabaning kelgusida kasbiy faoliyati bo‘yicha dars va darsdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda mashg‘ulotlarga ilmiy nuqtayi nazardan yondashishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talaba:

- birinchidan, mavzuning muhimligi, uni anglab olish zaruriyatini idrok etishi, vujudga keladigan savollarga javob berishga intilishi;
- ikkinchidan, umumiy tayyorgarlik tadqiqot uslublarini egallash darajasi;

– uchinchidan, tadqiqot dasturini ishlab chiqish mahorati, predmetni aniqlay bilish, masalaga oid adabiyotlar bilan ishlash, farazlarni ilgari surish, maqsadlarni qo‘yish va amalga oshirish va tadqiqotchilik hisobotini rasmiylashtirishgacha bo‘lgan hokazo ishlar.

## **1.2. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarining maqsad va vazifalari**

Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati XXI asr fani muvaffaqiyatining garovidir. Qadimgi davrlardan to bugungi kungacha fan, umuman, jamiyatga va alohida har bir kishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda bizni o‘rab turgan jamiki narsalar – bu inson ilmiy faoliyatining amaliy shakkiali hisoblanadigan texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayoni orqali moddiy boyliklarda mujassam bo‘lgan aqliy ish mahsuli.

Ilmiy ish boshqa har qanday ishdan o‘zining maqsadi – yangi ilmiy bilimni olishi bilan farq qiladi. Ayni shu ish jarayonida vogelik haqidagi obyektiv bilimlar ishlab chiqiladi va bir tizimga solinadi. Biroq fanda qandaydir bir yangi ilmiy faktini aniqlash kamlik qiladi, unga fan pozitsiyasidan turib izoh berish, uning umumiy bilishga oid, nazariy yoki amaliy ahamiyatini ko‘rsatish, shuningdek, ilgari ma’lum bo‘lmagan yangi jarayonlar va hodisalarini oldindan ko‘ra bilish talab etiladi.

Ilmiy ish bu, avvalo, qat’iy rejali faoliyatdir, garchi fanda tasodifiy kashfiyotlar qilinib tursa-da, lekin faqat rejali, zamonaviy vositalar bilan puxta qurollangan ilmiy tadqiqot tabiat va jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlarni ochish va teran bilishga imkon beradi. Shundan keyin avvalboshdagi fikrning aniq maqsadni ko‘zlab ishlanishini davom ettirish, oldindan mo‘ljallangan tadqiqot sxemasini aniqlashtirish, o‘zgartirish, unga qo‘srimchalar qilish jarayoni kechadi.

Ilmiy tadqiqot – umumiy maqsadi quyidagi ehtiyojlarga javob beradigan nazariyani qurishdan iborat bo‘lib, faktlarni tahlil etish, tasniflash va bir tizimga solish, real olamning aniq faktlarini talqin qilish va anglab olish, yangi natijalarni oldindan aytib berish va hodisalar rivojini bashorat qilish.

Talabalar ilmiy tadqiqot ishlaridan maqsad – ta’lim bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarning amaliyotga tatbiq etish, ijodiy ishlash, kasbga doir dolzarb masalalarning ilmiy yoritish, zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta’minlashdan iborat.

### 1.3. Tadqiqot mavzusini tanlash

Ilmiy mavzu – bu yechimini talab qiladigan murakkab vazifa bo‘lib, mauyyan ilmiy yo‘nalishga yoki ilmiy muammoga tegishli bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri tanlangan tadqiqot mavzusi butun bir ishning muvaffaqiyati hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot jarayoni mavzu tanlashdan boshlanadi, uning to‘g‘ri tanlanishi esa ko‘p jihatdan keyingi ishlarning muvaffaqiyatini belgilaydi, shuning uchun ham tadqiqotning to‘g‘ri tanlangan mavzusi katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘ziga tadqiqotchi tomonidan ham, uning ilmiy rahbari tomonidan ham jiddiy e’tiborni talab etadi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy ta’lim muassasasi ilmiy kengashi tomoni-

dan tasdiqlanadi hamda har o‘quv yili boshida qayta ko‘rib chiqiladi. Bitiruv malakaviy ishlari mavzulari kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan har o‘quv yili shakllantiriladi va talabalarga bitiruv malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi.

Magvularni olimpiya zaxiralari kollejlari, bolalar va o‘smyrlar sport maktablari, umumiy o‘rtalim muassasalari va maktabgacha bo‘lgan tarbiya muassasalari hamda boshqa korxona va tashkilotlar zaruriy asoslar bilan tadqiqot ishlari mavzularini taklif etishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi va rahbarini talabaga biriktirish mutaxassislik kafedraning taqdimnomasi bo‘yicha OTM rektorining buyruq‘i bilan tasdiqlanadi.

Bitiruv malakaviy ish rahbari, ishning mavzusiga muvofiq talabaga bitiruv malakaviy ishga tegishli materiallarni to‘plash va ishni tayyorlash bo‘yicha (tadqiqotni tashkil qilish va o‘tkazishda) talabaga vazifalarni beradi va yaqindan yordamlashadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy ish mavzusi tadqiqot-chining keyingi maqsadli faoliyati uchun istiqbolli bo‘lishi, ilmiy tadqiqotlarga qo‘yiladigan umumiy talablarga to‘la javob berishi shart. Masa-lan, “Maktab o‘quvchilari jismoniy tarbiyasi” mavzusi referat yoki kurs ishi uchun bo‘lishi mumkin, lekin uning nomida muammo yo‘q. Shuning uchun qandaydir aniq bir jihatni olgan ma’qul masalan, “Maktab o‘quvchilarini kuch qobiliyatlarini rivojlantirish”. Bunda muammo yaq-qol ko‘rinib turibdi, jumladan, maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiya darslari jarayonlarida jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni qanday amalga oshirish kerakligi ifodalanadi.

Ilmiy ish uchun undan ham aniqroq mavzuni tanlagan maqsadga muvofiqlir masalan, “5 – 6-sinf maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati”. Aniqlangan mavzuga muvofiq ravishda aniq ravshan maqsad va vazifalar shakllantiriladi.

Ilmiy tadqiqot mavzusining istiqbolli ekanligini belgilaydigan yana asosiy mezonlar quyidagilardan iborat:

- a) uning dolzarbligi, ya’ni jismoniy tarbiya va sportning muayyan sohasidagi nazariy hamda amaliy ahamiyati;
- b) olinadigan ma’lumotlar, tadqiqot usuli va yo‘nalishining yangiligi;
- d) murabbiylilik va pedagoglik amaliyotining eng muhim ehtiyojlari bilan bevosita aloqadorligi;

e) sport fanining mazkur sohasiga oid muayyan ilmiy masalani hal etish maqsadiga yo'naltirilganlik;

f) mayjud sharoitda qo'yilgan ilmiy vazifalarini bajarish mumkinligi (rahbarlik qiluvchi va bajaruvchi xodimlarning yetarliligi, xodimlarning tayyorlanganlik darajasi, zarur moddiy-texnika bazasining mayjudligi).

Ilmiy tadqiqotning istiqbolli yo'naliishini to'g'ri belgilash va uning aniq mavzusini tanlab olishda ilmiy-texnik axborotlar katta ahamiyatga ega. Ular har qanday turdag'i ilmiy-tadqiqot ishlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir tadqiqotchi ishni tanlangan mavzuga doir o'zigacha qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni toplash va o'rghanishdan boshlaydi, izlanishlarni o'zi erishgan natijalar to'g'risidagi u yoki bu ma'lumotlar bilan tugallaydi.

Ilmiy tadqiqot mavzusining istiqbolliligi mezonlarini aniqlash uchun tadqiqotchi quyidagi yo'naliishlar bo'yicha olib boriladigan ishning dastlabki tahlilini amalga oshirish kerak:

- mavzuning o'rghaniganlik darajasini aniqlash;
- tadqiqotda qo'llanishi mumkin bo'lgan usullarni belgilash;
- tadqiqotning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish.

#### **1.4. Bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish**

Bitiruv malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliv ta'lim muassasasi ning professor va dotsentlari yoki o'qituvchilari, boshqa muassasa va korxonalarning yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

- vazifa beradi;
- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan bitiruv malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki boshqa manbalardan aynan ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablar hajmini belgilagan holda, bitiruv malakaviy ishni bajarish

bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqadi va ular bilan talabalarni ta’minlaydi.

Kafedra mudiri bitiruv malakaviy ishning tayyorlik darajasini belgilaydi. Shu maqsadda kafedrada har bir bitiruvchi kesimida bitiruv malakaviy ishlarning bajarilish monitoringi tashkil etilib, uning bajarilish holati rahbarning haftalik hisobtlari asosida foizlarda aniqlab boriladi.

Bitiruv malakaviy ishlarni bajarish bosqichlarida belgilangan mudatlardan kechikish hollari aniqlanganda, ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar kafedra mudiri tomonidan belgilanadi.

### **1.5. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va asosiy mazmuni**

#### **Ishning kirish qismida:**

1. Ishning dolzarbliji.
2. Muammoning o‘rganilganlik darajasi.
3. Ishning maqsadi.
4. Tadqiqot obyekti.
5. Tadqiqot predmeti.
6. Tadqiqotning ilmiy yangiligi.
7. Tadqiqotning nazariy ahamiyati.
8. Tadqiqotning amaliy ahamiyati.
9. Tadqiqotning farazi.
10. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.

#### **Ishning dolzarbliji**

Bitiruv malakaviy ishining kompozitsion tuzilishi nuqtayi nazari dan olganda, mavzu dolzarbligining asoslanishi kirish qismining, taxminan, bir sahifasini egallashi va ushbu mavzuga nima uchun ayni hozir murojaat qilishning maqsadga muvofiqligi, ilmiy va amaliy zarurat nimadan iboratligi, tadqiqot predmeti haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlarning qanday holatda ekanligi izohlab berilishi kerak.

Mavzuning dolzarbligini asoslash tadqiqotni tayyorlashdagi juda mas’uliyatli bosqich hisoblanadi.

Dolzarblik -- yangilik, jamiyat hayoti bilan bog‘liqlik, etilgan ziddiyat.

**Tadqiqot ishi mavzusining dolzarbliji** – bu uning ijtimoiy nazarriya va amaliyot uchun kerakli ekanligi bo‘lib, fanda, ko‘pincha, oldingi

nazariy tasavvurlar doirasiga yaqqol joylashmaydigan yangi faktlarning kashf qilinishi natijasida vujudga keladigan vaziyatning mavjudligi bilan belgilanadi.

**Mavzuning dolzarbligini asoslash.** Tadqiqot ishining kirish matni ikki nuqtayi nazardan bayon qilinadi. Ushbu mavzuga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ehtiyojlari yuzasidan murojaat qilishning dolzarbliji, ayni shu vaqtida, aynan shu mavzuga murojaat etishning sabablarini qisqacha yoritish, jamiyatning bugungi kundagi holatining mazkur mavzuni tadqiq qilishni g'oyat zarur qilib qo'ygan o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab berish.

Ushbu mavzuga fanning ichki ehtiyojlari yuzasidan murojaat qilishning dolzarbliji – nima uchun bu mavzuning ayni shu vaqtida bunalik dolzarb bo'lib qolganligi, uning shu tarzda olib berilishiga ilgari nima xalaqit qilganligini izohlash, unga murojaat qilishning fan rivojining dinamikasi, bu muammo bo'yicha yangi axborotlarning to'planib qolganligi, mavjud tadqiqotlarda uning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, muammoni yangicha talqinda, tadqiqotning yangi uslublaridan foydalanim o'rghanish zarurligi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatish.

**Mavzuning dolzarbliji.** Zamонавиј та'лим тизимда “Кадрлар тaylor lash milliy dasturi” ва milliy modeliga mos ravishda olib borilayotgan islohotlar talaba yoshlarni dolzarb muammolariga bevosita aloqadordir. Ushbu konseptual hujjat talablariga, asosan, ta'lim muassasalari talaba yoshlarni salomatligini saqlash va mustahkamlash masalasiga doir zarur chora-tadbirlarni qabul qilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonini sog'lomlashtirishga yo'naltirish va sog'lom turmush tarzi me'yorlarini hayotga tatbiq etish shartlari ta'minlanyapti. Ta'lim oluvchilarining tibbiy-gigiyenik madaniyatini oshirish, ularning, jismoniy tarbiya va sportdagि faolligini jadallashtirish, jismoniy taraqqiyoti va tayyorgarligini shakllantirish omillarining tashkiliy-uslubiy jihatlari takomillashib bormoqda

Jismoniy tarbiya o'quv fani va pedagogik jarayonning tarkibiy qismi sifatida talaba yoshlarning umumiy va kasbiy ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, an'anaviy qonuniyatlarga hamda amaldagi tashkiliy-uslubiy dasturlarga asoslangan jismoniy tarbiyaning mavjud infrastrukturasi, talabalarda harakatga nisbatan ongli ehtiyoj tug'dirish va shaxsnı har tomonlama shakllantirish nuqtai nazaridan ularni sog'lomlashtirish, ta'lim jarayonini tashkil qilish va tarbiyalash masalalarini to'la-to'kis hal etilishini ta'minlamaydi

Mazkur muammoning yechimi jismoniy tarbiya shakllariga oid maqsadli dasturlarni har bir talaba istak va ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirish, ularni jismoniy taraqqiyoti va tayyorgarligini e’tiborga olgan holda, o‘quv-mashg‘ulot yuklamalarini tanlangan harakat faoliyatiga mos bo‘lgan yo‘nalishda qo‘llash zaruriyati bilan bog‘liqdir. Aynan har bir talabaga ta’lim muassasalarida joriy etilgan sport mashg‘ulotlarini moslashtirish bo‘yicha muayyan maqsad, vazifalar, vositalarni ishlab chiqish va shunga muvofiq integrallashtirilgan ta’lim-tarbiya va mashg‘ulot majmualarini yaratish hamda amalga joriy etish darkor bo‘ladi. Bunday tadbirdirlarni amalga oshirish faqat talabalarni tanlangan sport mashg‘ulotlariga bo‘lgan shaxsiy qiziqishlari va xohish-istikclarini uyg‘otuvchi yangi ta’lim-mashg‘ulot (trenirovka) texnologiyalarini joriy etish evaziga amalga oshirilishi mumkin. Ana shundagina talabalarning jismoniy potensialini oshirish, ularning kasbiy-amaliy jismoniy tayyor-garligini shakllantirish ta’milanadi. Qayd etilgan muammolar va ularning hayotiy yechimi tanlangan bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini isbotlaydi.

**Ilmiy muammo** – bu ilmiy tadqiqotchilik ishi mavzusini belgilaydigan murakkab nazariy va amaliy vazifalar majmuyi. Tanlagan tadqiqot sohasida muammoning mavjudligi tadqiqot dolzarbligining zaruriy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

**Muammo** – bu bilish bilan bilmaslik o‘rtasidagi o‘ziga xos chegarasi. U oldingi bilim yetarli bo‘Imagan, yangi bilim esa hozircha rivojlangan shaklga ega bo‘Imagan holatda paydo bo‘ladi. Muammo har doim odamlarning qandaydir samarali amaliy yoki nazariy harakatlarga ehtiyojlari haqidagi bilimlari bilan ularni amalga oshirish yo‘llari va vositalarni bilmasligi o‘rtasidagi ziddiyatdir.

**Ilmiy muammo** – bu bilishni rivojlantirish jarayonida obyektiv tarzda vujudga keladigan masala yoki yechimi amaliy yoki nazariy manfaat kasb etadigan masalalar majmuyi.

U ayni shu paytgacha erishilgan bilimlar darajasining yetarli emasligini idrok etish, qayd qilish bo‘lib, bu yangi faktlar, aloqalar, qonunlarining, mavjud nazariyalardagi mantiqiy xatolarni aniqlash oqibati yoki amaliyotning olingan bilimlar doirasidan chetga chiqishni talab etadigan yangi ehtiyojlarining paydo bo‘lishi oqibati hisoblanadi. Muammo tarmoq, tarmoqlararo, global bo‘lishi mumkin. Har qanday tadqiqot ishining boshlanishi muammoning topish va uni o‘rganishdan boshlanadi.

Bu yerda ushbu muammoning turli jihatlari bilan shug‘ullangan mamlakatdagi va chet ellardagi olimlarni sanab o‘tish, yetarli darajada yoritilmagan masalalarni qayd qilish kerak. Muallif mavzuni yaxshi o‘z-lashtirganligi, ilmiy matnlar va bibliografik material bilan ishslash uslubini egallaganligini namoyish etishi, bundan oldingi tadqiqotchilar va zamondoshlarning bu muammo yechimiga qo‘sghan hissasini to‘g‘ri bahoay olishini tasdiqlashi lozim.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Jismoniy mashqlarni qo‘llash usullari sport mashq usulblari masalalari ko‘pgina tadqiqotchilar ishlarida va ilmiy adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan (R.Salomov 2005; F.A.Kerimov, M.N.Umarov, 2005; A.Abdullayev Sh.X.Xonkeldiyev, 2005; Y.M.Yunusova, 2007; K.Mahkamjanov, R.Salamov, I.Ikramov, 2007; O.V.Goncharova, 2005).

Har bir harakat faoliyatlarga jismoniy tarbiya jarayonida, maxsus mashg‘ulotlarda o‘rgatish uchun o‘qituvchi turli o‘rgatish usullarini, yo‘llarini bilishi kerak, o‘quvchilar esa harakatlarga o‘rganish usullariga ega bo‘lishlari lozim.

Qanday qilib o‘quvchilarga bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish, ya‘ni turli harakatlarga o‘rgatish kerak. Bu o‘qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. O‘rgatish usullari turlituman bo‘lib, ulardan kerakligini tanlab olish va unumli uni qo‘llash, o‘qituvchining pedagogik san‘atiga bog‘liq, shuning uchun o‘rgatish samaradoligi o‘qituvchining to‘g‘ri usullarni tanlash va ishlata bilishiga bog‘liq. Bu metodlarni tanlashda vazifalar, tarbiyalashni ta‘minlovchi o‘rgatish xarakteri, o‘quv materiallariga, ularning imkoniyatlari, mashg‘ulot sharoitlari hisobga olinadi.

Sport mashg‘ulotlari va jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish yo‘llari va shart-sharoitlari tadqiq etish muammosini o‘rganilishi o‘rgatish muamosiga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo‘la oladi.

**Tadqiqot maqsadi** – bu tadqiqotchi o‘z ishini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natija.

Tadqiqotning maqsadi nazariy bilish yoki amaliy so‘ngi natijagi yo‘naltirilgan. Har qanday ilmiy tadqiqotning maqsadi muayyan muammoni yechishdir. Maqsad tadqiqotning yanada aniq maqsadlariga bo‘linadi. Ular tadqiqotchi tomonidan yuzaga kelgan muammoni nazariy jihatdan tahlil qilish, hamda uning amaldagi yechilishi holatiga berilgan baho asosida qo‘yiladi. Bu bitiruv malakaviy ishining strategiyasi va

taktikasidir. Bitiruv malakaviy ishining maqsadini ifodalashda shuni nazarida tutish kerakki, ishning uchinchi bobining nomi va mazmuni maqсадни очиб берishi lozim. Vazifalarning sanab o‘tilishi implitsit ravishda butun ish matnining rejasi va ichki mantiqini beradi.

Ishning maqsadi tadqiqot muammosiga qat’yan mos kelishi shart.

**Ishning maqsadi.** Sport mashg‘ulotlari jarayonida o‘rgatish uslublaridan samarali foydalanish orqali yuqori natijalarga erishishdan iborat.

**Tadqiqot obyekti** – bu muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o‘ziga xosligi, tadqiqot-chilik faoliyatiga yo‘naltirilgan narsa. Real olamning izlanuvchi tadqiqot uchun tanlagan sohasi tadqiqot obyekti deb ataladi.

**Tadqiqot obyekti** – maktabda darsdan tashqari mashg‘ulotlar jaryoni.

**Tadqiqot predmeti** – obektning aniq bir qismi bo‘lib, uning ichida izlanish olib boriladi. Tadqiqot predmeti bu izlanuvchi tadqiqot obyektiqa qarash uchun asos qilib oladigan nuqtai nazardir.

Tadqiqot obyekti va predmeti o‘zaro bir-biri bilan umumiy va xususiy sifatida o‘zaro nisbatda bo‘ladi. Obyektda uning tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qiladigan qismi ajratib ko‘rsatiladi. Bitiruv malakaviy ishining asosiy e’tibori ayni shu narsaga qaratiladi, aynan tadqiqot predmeti bitiruv malakaviy ishining titul varag‘ida sarlavha sifatida ifodalan-gan mavzuyini belgilaydi.

**Tadqiqot predmeti** – jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarliklarining rivojlantirish uslubiyati hamda uni tashkil qilish va amalga oshirish shakllari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** – bu tadqiqot jarayonida asosiy xulosa sifatida olingan, to‘g‘ri qo‘yilgan masaladan va tadqiq etilgan zaruriy va etarli holatlardan mantiqan kelib chiqadigan fikrni qisqacha bayon qilish. Bu aniqlangan yangi fakt, qo‘yilgan masalaning asosli echimi, ilmiy muomalaga yangi ma’lumotlarning olib kirilishi, ma’lum faktning yangi sharoit uchun isbotlanishi demakdir. Yangilikni olingan natijani ma’lum faktlar bilan solishtirish orqali ko‘rsatish mumkin.

Bu yerda tadqiqot jarayonida asosiy xulosa sifatida olingan, to‘g‘ri qo‘yilgan masaladan va bu masalaga javob beradigan tadqiq etilgan zaruriy va yetarli holatlardan mantiqan kelib chiqadigan fikrlar qisqacha bayon qilinadi. Bu aniqlangan yangi fakt, qo‘yilgan vazifaning asosli yechimi, yangi ma’lumotlarning ilmiy muomalaga olib kirilishi, ma’lum

faktning yangicha sharoitlar uchun tasdiqlashi bo‘lishi mumkin. Yangilikni olingen natijani ma’lum bo‘lgan natijalar bilan solishtirish orqali ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatish ham mumkin.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- maktabda darsdan tashqari sport mashg‘ulotlarida samarali o‘rgatish uslublarni aniqlanganligida;
- mashg‘ulotlarda samarali o‘rgatish uslublarni ilmiy tadqiqotlar asosida aniqlanganligidi.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati.** Tadqiqot asosiy natijalarining ilmiy maqolalar, ilmiy-amaliy konfrensiyalarda e’lon qilinishi va tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi haqidagi hujjatlar mavjudligidan iborat.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati.** Maktabda darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va shug‘ullanuvchilarining tayyorgarliklarini rivojlantirishga doir o‘rgatish uslublarni amaliyotda qo‘llash va joriy etishdan iborat.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Ilmiy ishning amaliy ahamiyati ko‘p jihatdan izlanuvchi bajaradigan tadqiqot xarakteri bilan belgilanadi, jumladan nazariy va metodologik tusdagi ilmiy ishlar uslubiy yoki amaliy tusdagi ilmiy ishlarga nisbatan ko‘proq bevosita amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Sport mashg‘ulotlari jarayonida shug‘ullanuvchilarining sport mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga va tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan.

**Faraz** (gipoteza qadimgi grek tilidan – asos, taxmin) – oldindan o‘rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan, ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tasdiqlanishi yoki inkor etilishi lozim bo‘ladigan nazariy taxmin.

**Tadqiqot farazi** – bu bevosita kuzatilayotgan hodisa, o‘rganilayotgan hodisaning tuzilishi yoki uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar xususiyati haqidagi ilmiy asoslangan taxmindir. Farazlar mavjud faktlar asosida ishlab chiqiladi.

**Tadqiqotning farazi.** Maktabda darsdan tashqari sport mashg‘ulotlari jarayonida o‘rgatishning samarali uslublarini qo‘llab, mashg‘ulot olib borilganda yuqori natijalarga erishiladi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmida, ishning kirish qismi to‘g‘risidagi ma’lumot, ishning bob va mavzulari, xulosa va amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro‘y-

xati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon qilinadi. Shu bilan birga, ish necha sahifadan iboratligi, nechta jadval, rasm, adabiyotlar va internet ma’lumotlari haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Ish kirish, uchta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ish 60 betdan iborat matnda bayon qilingan, 7 ta jadval va 7 ta rasm bilan yoritilgan. Adabiyotlar ro‘yxati 27 ta manbani o‘z ichiga oladi, shulardan 7 tasi internet saytlari.

## 1.6. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash va ularning tahlili

Adabiyotlarning o‘rganish bilim olish, ilmiy dunyoqarashingizni yanada kengaytirish niyatida matndan ta‘lim mavzusi, o‘zingizni qiziqti-radigan ilmiy qiziqishlar va tadqiqotlar mavzulari bo‘yicha zarur axborotlarni olish maqsadida ilmiy adabiyotlar – jurnallar, ilmiy asarlar va maqolalar to‘plamlari, kitoblarni mutolaa qilishdir.

Mutolaa – bu nutqiy faoliyatning murakkab turi bo‘lib, sof texnik jihatni – mutolaa qilish va tez o‘qish malakalarini orttirish va ijodiy jihatni – matndan zarur axborotlarni olishdan iborat.

Matn bilan tanishib chiqish va o‘rganishdan oldin, odatda, kitobga ko‘z yogurtirib chiqiladi. Kitobning mazmuni, boblar yoki paragraflar nomlari, asar muallifi bilan tanishib olish uchun shunday qilinadi. Bunda kitobning titul varagi, mundarijasi, annotatsiya, matndagi ayrim parchalar va alohida gaplar bilan tanishib olinadi. Ana shu axborotning o‘zi ushbu manbaning qanchalik zarur bo‘lishini belgilashga yordam beradi.

O‘rganish uchun o‘quvchi tomonidan adabiyotni diqqat bilan, ayrim joylari ustida biroz to‘xtalib va axborotlarni mushohadadan o‘tkazib o‘qiladi. O‘rganish uchun mutolaa matndagi asosiy mazmunni, uning maqsadini o‘zlashtirish, dalillar mantiqini anglab olish, oldingizga qo‘ygan savollarga javob topishga qaratiladi.

Mutolaaning bu turi materialni o‘rganishda uni kichik mavzular, boblar, qismlar bo‘yicha izchil o‘qib chiqishni talab qiladi, matn haqida o‘z fikringizni hosil qilishga undaydi, axborotlarni tanqidiy nuqtayi nazaridan idrok etish malakasini shakllantiradi.

Adabiyotni o‘rganishda mutołaa juda jiddiy va sermullohazali bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilishda o‘qib chiqilgan matnni tahlil etish kerak, notanish atamalar va tushunchalar ma’nosini bilib olish, o‘zingizga ahamiyatlari bo‘lgan savollarga javob izlash zarur, kerak-

li axborotlarga belgilar qo'yish lozim. Ilmiy ishingizda asqotadigan joylarini zarur fikrlar, faktlar, raqamlar, har xil nuqtayi nazarlarni ko'chirib olish lozim. O'qib chiqqandan keyin olingen axborotlarni ularga tanqidiy nuqtai nazardan, tadqiqotingiz uchun ahamiyatini hisobga olib yondashish lozim.

### **1.7. Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish**

O'r ganilayotgan obyekt to'g'risidagi materiallarni yig'ish va to'plash har qanday tadqiqotning markaziy qismini tashkil etsa, yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, umumlashtirish ilmiy ijodning eng mas'uliyatli bosqichi sanaladi. Aynan shu bosqichda tadqiqotchi o'r ganilayotgan masalani chuqur, har tomonlama qamrab olishi, to'plangan ma'lumotlarga to'g'ri, ilmiy jihatdan asoslangan baho berishi, o'z mulohazalarining to'g'riligiga ishonchli dalillar keltira bilishi lozim.

Yig'ilgan ma'lumotlarni, avval, tadqiqotning maqsad va vazifalari dan kelib chiqib, zarur tartibda guruhlarga ajratib olish maqsadga muvoifiqdir. Bunday guruhlashtirish turli belgilarga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Ba'zan taqsimlash sportchilarning yoshi, jinsi, tayyorgarlik darajasiga (yangi shug'ullanuvchilar, razryad egalari, sport ustalari va xalqaro toifadagi sport ustalari) qarab, boshqa holda o'quv-mashq hamda musobaqa yuklamalari ta'siri ostida organizmning funksional harakatlaridagi u yoki bu o'zgarishning yuzaga kelishi darajasi (masalan, kurashda – "texnikachilar", "tezkorlar", "kuchlilar"), uchinchi holda bajarilgan biomexanik, fiziologik, ruhiy tadqiqotlarning natijalari asosida, to'rtinchchi holda o'r ganilayotgan harakat faoliyatining yuzaga kelish yoki shakllanish muddatiga qarab bajariladi.

Yig'ilgan materiallarni tahlil qilishning eng muhim vazifasi ilmiy tadqiqotning ilgarigi barcha boqichlarida qo'lga kiritilgan axborotga tanqidiy baho berishdan iboratdir. Bunday tanqidiy baho adabiyotlar mutolaasi asosida to'plangan ma'lumotlarga nisbatan qanchalik zarur bo'lsa, muallifning o'z tadqiqotlari natijasida olgan ma'lumotlariga nisbatan ham shunchalik zarur. Bunda ma'lumotlarning ishonchliligi va tipikligi darajasini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotchi yig'ilgan ilmiy ma'lumotga usuliy yoki texnik tomondan yo'l qo'yilgan xatoliklar ta'sir ko'rsatganligiga ishonch hosil qilmog'i kerak.

Tadqiqot materiallari muayyan maqsad asosida guruhlarga taqsimlab olingach, ularni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonining muhim

unsuri – olingen ma'lumotlarni taqqoslash hisoblanadi. Bundan maqsad – ularning o'xhash va farqli jihatlarini, mazkur tadqiqotning maqsad va vazifalariga qanchalik muvofiqligini, xususan, ishchi farazlarning mohiyatini tashkil etuvchi nazariy hukmlar hamda qarashlar tizimiga mosligini ochib berish.

To'plangan ma'lumotlarni tahlil etish va umumlashtirish, tanqidiy baholash, taqqoslash hamda bog'liq jihatlarini aniqlash natijasida tadqiq etilayotgan hodisalarining o'xhash tomonlari, qonuniyatlar yuzaga chiqadi. Bu erda ishlab chiqilayotgan masala bo'yicha muallif tomonidan o'r ganilgan barcha adabiy manbalar tahlil qilinadi. Bunda maxsus adabiyotlardan tashqari foydalanilgan turli bilim sohalariga taalluqli adabiyotlar tahlil qilinadi. Adabiyotlardan olingen ma'lumotlarga qarab, o'r ganilayotgan masala qay ahvolda ekanligi, shuningdek, mazkur masalani hozirgi zamon amaliyotidagi o'rni va holati ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, bu bobda yetakchi mutaxassislarining tajribalari dan olingen ma'lumotlar, ularning fikr-mulohazalari va hokazolar keltiriladi.

Tadqiqotning yakunigacha xulosa qismiga zamin hozirlaydigan, ilmiy umumlashmalarining mag'zini tashkil etadigan narsa xuddi shuning o'zidir. Ilgari bayon etilgan ma'lumotlardan mantiqan kelib chiqadigan bu xulosalar tadqiqotchining taxminlari va taassurotlariga emas, aniq faktlarga, isbotlangan ma'lumotlarga asoslanmog'i lozim.

Bolalar va o'smir yoshlarning sport mahoratini o'sishi ko'p jihatdan turli hajmdagi va xarakterdagи trenirovka mashqlarining oqilona nisbati bilan aniqlanadi. Trenirovka yuklamalari tizimining asosiy pedagogik qoidalaridan biri – ularning kattaligi va uyg'unligi tayyorgarlikning barcha bosqichlarida ta'sir sur'ati tiklanish sur'atiga mos bo'lishi, ya'ni yosh sportchi organizmini salbiy ta'siridan xalos etish lozim.

B.F.Lomov (1996), quyidagi fikrlarni bildiradi, insонning ishga layoqatliligining oqilona oralig'i uchun assosiy xarakterli belgilardan quyidagilar o'smirlar sporti uchun muhimdir:

- ishlayotgan tizimning funksiyalarni yuqori darajada namoyon bo'lishi;
  - uzoq vaqt tizimning ishga layoqatliligin ta'minlash;
  - funksianing namoyon bo'lish turg'unligi, ya'ni tizim ishi natijalarning eng kam o'zgaruvchanligi;
  - tizimning tashqi ta'sirga mos ta'sirchanligi.
- Keltirilgan omillardan, yosh sportchilarning oqilona ishga layoqat

holatiga erishish uchun ko‘p yillik tayyorlovda trenirovka yuklamalari ning tuzish strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

L.P.Matveyevning (1991) fikricha, trenirovka yuklamalari tuzilmasi tushunchasi, trenirovka yuklamalari parametrlarini birlashishining nisbatan turg‘un tartibini, ularning mantiqiy nisbatini va o‘zaro aloqasini ifodalaydi. Bolalar va o‘smirlarning yosh qonuniyatlarini bilan bog‘liq bo‘lgan trenirovka yuklamalari tuzilmasining xususiyatlarini ochib beradigan maxsus ishlar juda kam (Y.G.Travin, 1975; V.G.Polovets, G.M. Panov, 1977, Y.N.Vavilov, 1980; B.F.Drabkin, B.M.Vasilkovskiy, 1984; M.Y.Nabatnikova, 1990). Shuning uchun, trenirovka yuklamalari tuzilmasini yakuniy holda ifodalashning imkoniyati yo‘q.

Yosh sportchilarning imkoniyatlarini amalga oshirish samaradorligiga erishish ularning har tomonlama tayyorgarliklariga asoslangan bo‘lishi lozim, shuning uchun trenirovka yuklamalari bir yo‘nalishli va tor ixtisoslikda bo‘lmasligi lozim. Shunday qilib, sport trenirovkasi trener va sportchi faoliyatining natijalarini belgilaydigan o‘ziga xos spetsifik qonuniyatlarga ega ekan. Faqat ana shu qonuniyatlarni bilib olgandaqina hamda ulardan ta’lim va tarbiyaning umumiy tamoyillari, spot taraqqiyotining umumiy tamoyillari bilan birgalikda foydalilanigandagina, sport taraqqiyotining cho‘qqilari sari ishonch bilan borish mumkin.

V.N.Platonovning (1986), fikricha, umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi bu sportchining harakat sifatlarini har tomonlama rivojlaniganlik darajasini anglatadi. V.A.Titarning (1991), fikriga ko‘ra, voleybolchilar uchun jismoniy sifatlar ichida eng e’tiborlisi sakrash chidamkorligi bo‘lib u faqat umumiy chidamkorlik negizida rivojlanadi.

L.P.Matveyevning fikricha (1991), trenirovka yuklamalari tuzilmasi tushunchasi, trenirovka yuklamalari parametrlarini birlashishining nisbatan turg‘un tartibini, ularning mantiqiy nisbatini va o‘zaro aloqasini ifodalaydi. Tayyorgarlikning har bir tomoni u yoki bu darajada sportchida asosiy jismoniy sifatlar: tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezkorkuch qobiliyatları, shuningdek, koordinatsiyaning rivojlanish darjası bilan belgilanadi (19, 27, 32, 46). Har bir yoshda jismoniy sifatlarining rivojlanish darjası har xil sport turlari vakillarida bir-biridan farq qiladi (16, 22). Shuning uchun yosh sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligini boshlang‘ich bosqichida yuklamalarni rejalashtirshda umumiy va maxsus tayyorgarlikning vositalari, hamda turli yo‘nalishdagi mashqlarning miqdori asosiy hisoblanadi. Shu tarzda mavzu bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlar tahlil qilinadi va bayon qilinib umumlashtiriladi.

## **II BOB. TADQIQOT VAZIFASI, USLUBLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH**

### **2.1. Tadqiqot vazifalari va uslublarini belgilash**

Adabiyotlarning dastlabki tahlili tadqiqotchiga mavzusi bilan bog‘-liq vazifalarni belgilab olish imkonini beradi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- umumiy muammoga kiruvchi muayyan nazariy masalalarni hal etish;
- mazkur muammoni hal etish amaliyotini ilmiy tajriba asosida o‘rganish, uning tipik holatlarini, nuqsonlarini, murakkabliklarini, ularning sabablarini, shuningdek, ilg‘or tajriba belgilarini oolib berish;
- qo‘ylgan vazifani yechish uchun zarur choralar tizimini asoslash;
- taklif etilgan choralar tizimini uning optimallik mezonlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan ilmiy tajriba asosida tekshirish;

Tadqiqotning vazifalari o‘z ahamiyatiga ko‘ra, o‘zaro mutanosib bo‘lishi kerak.

Juda yirik yoki birmuncha xususiy, ba’zan, hatto avvalgi vazifaning unsuri bo‘lgan vazifalarning yonma-yon joylashib qolishidek tez-tez uchrab turadigan holatga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Har qanday tadqiqotga qo‘yiladigan zaruriy talab – tadqiqot mavzusi nomlanishining, shuningdek, obyekti, predmeti, muammolari, maqsad va vazifalarining uning tuzilishiga mantiqiy muvofiqligidir. O‘rtaga tashlangan vazifalar yig‘indisi tadqiqot maqsadini yaxlit holda aks ettiradi. Ishning maqsadi tadqiqot muammosiga qat’iyan mos kelishi shart. Mantiq buzilgan joyda tadqiqotning tartibiga ham putur etadi, bu esa vazifalarni to‘liq hal qilishga imkon bermaydi.

Tadqiqot vazifalari – bu ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo‘llar va vositalarning tanlanishi.

Vazifalarni maqsadga erishish uchun qilinishi zarur bo‘lgan narsa-ning tasdiqlanishi shaklida ifodalash eng ma’qul variantidir.

Vazifalarning qo‘yilishi – tadqiqot maqsadining kichik maqsadlariga bo‘linishiga asoslanadi. Vazifalarning sanab o‘tilishi unchalik murakkab bo‘limgan vazifalardan eng murakkab, ko‘proq mehnat talab qiladi.

gan vazifalarga tomon yurish tamoyili bo'yicha quriladi, ularning soni esa tadqiqotning teranligi bilan belgilanadi.

Vazifalarni juda sinchiklab ifodalash zarur, chunki keyinchalik ular yechimlarining bayoni boblar mazmunini tashkil etadi. Boblar sarlavhalari ayni shu vazifalar ifodalaridan hosil bo'ladi.

#### **Ilmiy tadqiqotning tipik vazifalari:**

- tadqiq qilinayotgan hodisani bayon qilish;
- sabablar va shartlarni aniqlash;
- sabablarni izohlash;
- tadqiq qilinayotgan hodisalarning tasnifini qurish;
- qonuniyatni aniqlash va asoslash;
- mazmunni tushunish va izohlash;

– aniqlangan, bayon qilingan va izohlangan hodisa uchun nom berish (ya'ni yangi atamani ilmiy muomalaga kiritish).

Tadqiqot vazifalari – bu ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo'llar va vositalarning tanlanishi.

Tadqiqotning vazifalari o'z ahamiyatiga ko'ra o'zaro mutanosib bo'lishi kerak. Vazifalarning sanab o'tilishi unchalik murakkab bo'lgan vazifalardan eng murakkab, ko'proq mehnat talab qiladigan vazifalarga tomon yurish tamoyili bo'yicha quriladi, ularning soni esa tadqiqotning teranligi bilan belgilanadi.

Vazifalarni juda sinchiklab ifodalash zarur, chunki keyinchalik ular yechimlarining bayoni boblar mazmunini tashkil etadi. Boblar sarlavhalari ayni shu vazifalar ifodalaridan hosil bo'ladi.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

- voleybolchi talabalarning texnik tayyorgarlik darajalarini o'rghanish;
- shug'ullanuvchichilarining texnik tayyorgarligini rivojlantirishda tanlab olingan mashqlar samaradorligini aniqlash;
- o'yinga kiritilgan to'pni qabul qilish samaradorligini oshirish uslublarini ilmiy asoslashdan iborat.

## **2.2. Tadqiqotning vosita va uslublari**

Sport fani taraqqiyotida tadqiqotning vosita va usullari katta ahamiyatga ega. Sport fanida bilishga doir eng katta qiyinchiliklarni tug'diruvchi omil, bir tomon dan, tadqiqot vositalarining etishmasligi bo'lsa, ikkinchi tomon dan, jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagogik hodi-

salarni o'lhash yo'llari va usullarining ishlab chiqilmaganligidir.

Texnik vositalar deganda ovoz yozish, kino, videoapparatlari, turli refleksometr, dinamometrlar, o'qitish hamda nazorat funksiyalarini bajaruvchi boshqa o'lhash uskunlari tushuniladi. Biroq bularning hammasi yordamchi asboblardir.

Sport fani uchun bilish faoliyatida trener qo'llaydigan umumiy yo'l va usullar, ayniqsa, muhimdir. Bunda tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha bilish usullarining aynan bir xil bo'lish talabi jiddiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatlari hal etilishi tadqiqot usullarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Akademik I.P.Pavlov ham o'z ilmiy ishlarida tadqiqotning butun jiddiyligi usulga, harakat yo'liga bog'liqligini ta'kidlagan edi. Hamma gap yaxshi usulda. Uni qo'llagan kishi u qadar iste'dodli bo'lmasa-da, ko'p narsaga erishishi mumkin. Usul yomon bo'lsa, hatto daho olim ham behuda ishlagan bo'ladi, qymmatli, aniq ma'lumotlar ololmaydi. Ilmiy tadqiqot uslubi bu muayyan bilish maqsadini hisobga olgan holda ma'lum bilish vazifalarini hal etishga qaratilgan aqliy va amaliy tartib-qoidalar tizimidir.

Demak, fanda tadqiqot usulining ahamiyati shu darajadaki, tadqiqot natijalari, boshqacha aytganda, fanning taraqqiyoti, yutuqlari bevosita unga bog'liqdir. Tadqiqotchi obyektiv jihatdan to'g'ri xulosalarni fagaq aniq tanlangan usul (usullar) yordamida chiqarishi mumkin. Shuning uchun u obyektiv borliqni bilishning ilg'or usullarini egallab olishi zarur. Usul ilm-fanni olg'a siljituvchi kuch, uning taraqqiyoti omilidir. Eng mukammal, aniq usullar fanni yangi ma'lumotlar, qoidalar, xulosalar bilan boyitadi. Ammo usul har qancha yaxshi bo'lmisin, u o'z-o'zidan tadqiqotning muvaffaqiyatini to'la belgilay olmaydi. To'g'ri usulni tanlashgina emas, uni to'liq egallab olish hamda qo'llashda tajriba orttirish ham juda muhim, Shuning uchun ilmiy tadqiqotning eng mas'uliyatlari bosqichi uning maqsadlariga mos usullarni aniqlab, chuqur o'zlashtirib olish hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot va uning natijalari, jumladan, dissertatsiya ishlari sifatiga baho berishda ularning usuliy jihatlariga, eng avvalo, qo'llangan usullarning tadqiqot maqsadlariga muvofiqligiga, ayni paytda, texnika taraqqiyotining hozirgi zamon darajasiga qanchalik mosligiga katta e'tibor berilishining sababi ham shunda.

Ilmiy bilishning xilma-xil usullarini quyidagicha guruhlash qabul qilingan:

- 1) tajribaviy-empirik darajadagi usullar;
- 2) nazariy darajadagi usullar;
- 3) metanazariy darajadagi usullar.

Tajribaviy-empirik darajadagi usullar urganilayotgan muammoga doir faktlarni to‘plash, shuningdek, olingan ma’lumotlarni tekshirish va aniqlashtirish bosqichlarida keng qo‘llaniladi. Nazariy hamda metanazariy darajadagi usullardan faktlarning mag‘zini chaqish va nazariyani shakllantirish bosqichlarida foydalaniładi.

Odatda, pedagogik tadqiqotlarda birinchi va ikkinchi guruh usullari ko‘proq qo‘llaniladi.

Tajribaviy – empirik darajadagi usullarga: kuzatish, so‘rovnama asosida ishslash, suhbatlashish, mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini o‘rganish, sportchi tayyorgarligini har jihatdan testlash, turli ilmiy tajribalar o‘tkazish kiradi.

Tajribaviy – empirik darajadagi usullar tadqiqotchiga pedagogik jarayonlarning kechishidagi obyektiv hodisalarni ilg‘ashda yordam berib, unga ishonchli faktlarni taqdim etadi. O‘rganilayotgan obyektni keng ko‘lamda, chuqur bilish faqatgina shunday “oshkor etuvchi” usullar yig‘indisidan foydalangandagina mumkin bo‘ladi. Ular yordamida faktlarni to‘plash va har tomonlama tekshiruvdan o‘tkazish jarayoni ro‘y beradi. Ammo faktlar bir tizimga solinganda, ular orasidagi tasodifiy bo‘lмаган bog‘lanishlar ochib berilganda, sabab va oqibatlar aniqlanganda va faqat shu holdagina ilmiy qimmatga ega bo‘ladi. Shunday ham bo‘ladiki, tadqiqotchi yiqqan ko‘pdan ko‘p faktlar orqasida muallifning usuliyat borasidagi cheklanganligi va ojizligi yashirinib yotadi.

Haqiqatni yuzaga chiqarish uchun faktlarni yig‘ishning o‘zi (faktlarning jiddiyligi qoidasiga to‘la rioya qilingan holda) yetarli emas, ularga nazariy jihatdan to‘g‘ri ishlov berish ham talab etiladi. Ularning, dastlab, tizimga solinishi hamda tahlil etilishi kuzatishlar, suhbatlar, ilmiy tajribalar jarayonida o‘tkaziladi, zero, bu usullar pedagogik hodisalarni hissiy o‘zlashtirish jarayonlarinigina emas, faktlarga saralash hamda tasniflash, qabul qilingan bilimlarning mag‘zini chaqib, xotiraga muhrlash amalga oshiriladigan fikrlash muolajalarini ham o‘z ichiga oladi.

Nazariy darajadagi usullar. Jismoniy tarbiya nazariyasi ishonchli ilmiy faktlar yig‘indisidan iborat emas. Faktlar zarur, chunki faktlarni keltirish orqali o‘rganilayotgan hodisaning muayyan jihatlari qayd etiladi. Ammo faktlar (ya’ni tekshirilayotgan pedagogik voqelikni kuzatish natijalari, asboblarning ko‘rsatmalari, ilmiy tajribalarning ma’lumotlari,

bayonnomalari) ilmiy nazariyaga uning muayyan qoidalari isboti sifatida kiritilishi uchun ular saralanib tasniflanishi, tahlil etilishi, umumlashtirilishi lozim. Faqat shu yo‘l bilan hodisalarning sabablarini yoki ulardan kelib chiqadigan oqibatlarni bilish, obyektiv, tasodifiy bo‘lмаган bog‘lanishlarni tushunish mumkin.

Nazariy darajaga etgan ilmiy fikrlash empirik bayon etishdan ozod bo‘lib, nazariy umumlashmalarni yaratadi. Bilimlarning o‘rganilayotgan hodisalarga nazariy munosabatini shakllantiruvchi yangi nazariy mazmuni empirik ustqurmaga aylanib, ilmiy bilimlarning yangi qatlamini hosil qiladi.

Tadqiqotchi faktlarni kashf etib, qayd qilar ekan, shu zahoti ularning mag‘zini chaqadi. Demak, xulosa qilish mumkinki, bilishning empirik va nazariy darajalari dialektika qonunlariga ko‘ra, o‘zaro aloqador: biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmaydi, rivojiana olmaydi ham. Lekin, baribir, bu darajalarni bir-biridan farqlash va ularning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Metanazariy darajadagi usullar. Ushbu usullar yordamida nazariylarning o‘zi tadqiq etilib, ularning tuzilish yo‘llari ishlab chiqiladi. Fal-safa fanining o‘rganish predmeti faqatgina tabiat obyektlari emas, ilmiy nazariyalar, ularning voqelikka munosabati hamdir. Shu ma’noda falsafaning o‘zi metanazariya hisoblanadi.

Nazariy bilish darajasida tahlil va sintez usullaridan keng foydalanildi. Ular obyektlar (hodisalar) orasidagi bog‘lanishlarni muayyan belgilariqa qarab tarkibiy qismlarga bo‘lish, aksincha, qismlarni (belgilarni) bir butun qilib birlashtirish yo‘li bilan ochishga imkon beradi.

Bilishning nazariy darajasiga xos yana bir xususiyat – induktiv va deduktiv yo‘llar asosida xulosa yasash bo‘lib, ular yordamida empirik ma’lumotlar umumlashtirilib, mantiqiy natijalar yuzaga chiqariladi.

Nazariy darajadagi pedagogik tadqiqotlar o‘rgatish va o‘zlashtirishning yangi tizimlarini ishlab chiqishga yordam beribgina qolmay, nazariy jihatdan ishlab chiqilgan tizimlarning ilmiy tajribalar asosida to‘plangan yangi materiallarga muvofiq kelishi masalasini ham hal qiladi. Yangi nazariy modellarning ishlanishi va ularning empirik materiallar bilan nisbati tadqiqot ishining o‘zaro bog‘liq va zaruriy ikki bosqichidir. Albatta, ular zamonda har doim ham qat’iy ravishda izma-iz yurmaydi.

Tadqiqotchi oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi tadqiqot usullarining to‘g‘ri tanlanishigi bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqot uslubi

bu muayyan bilish maqsadini hisobga olgan holda ma'lum bilish vazifalarini hal etishga qaratilgan aqliy va amaliy tartib-qoidalalar tizimidir.

### **Ishda quyidagi tadqiqot uslublaridan foydalaniladi:**

**1. Maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarning nazariy tahlili.** Yig'ilgan materiallarni tahlil qilishning eng muhim vazifasi tadqiqotning ilgariji barcha bosqichlarida qo'fga kiritilgan axborotlarga tanqidiy baho berishdan iboratdir.

To'plangan ma'lumotlarning tahlil etish va umumlashtirish, tanqidiy baholash, taqqoslash hamda bog'liq jihatlarini aniqlash natijasida tadqiq etilayotgan hodisalarning o'xshash tomonlari, qonuniyatlarini yuzaga chiqadi. Bu yerda ishlab chiqilayotgan masala bo'yicha muallif tomonidan o'rganilgan barcha adabiy manbalar tahlil qilinadi.

Bunda maxsus adabiyotlardan tashqari foydalanilgan turli bilim sohalariga taalluqli adabiyotlar tahlil qilinadi. Adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga qarab o'rganilayotgan masala qay ahvolda ekanligi, shuningdek, mazkur masalaning hozirgi zamon amaliyotidagi o'mni va holati ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, bu bobda yetakchi mutaxassislarning tajribalari dan olingan ma'lumotlar, ularning fikr-mulohazalari va hokazolar keltiriladi.

Voleybolda to'p uzatuvchi o'yinchining to'p uzatish samaradorligini oshirish mu-ammolariga bag'ishlangan o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar o'rganilib tahlil qilindi va ma'lumotlar umumlashtirildi. Ilmiy ishni olib borish vazifa va uslublari aniqlandi.

Voleybolda to'p uzatish texnikasi va o'zaro taktik harakatlar hamda eng samarali to'p uzatish, mashqlar majmualari, o'quv-mashg'ulotlar, musobaqalar, shuningdek, tadqiqot natijalarini ishlab chiqish uchun matematik statistika uslublarini qo'llash bo'yicha adabiyotlar tekshirildi. To'p uzatuvchi o'yinchining asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish va taktik tayyorgarlik tomonlarini takomillashtirishning mavjud uslubiyatlari tahlil qilindi. Sport tayyorgarligining turli bosqichlarida mashg'ulot jarayonini tashkil etish xususiyatlari, mashg'ulotlarni individuallashtirish yo'llari hamda uning samaradorligini oshirish imkoniyati o'rganildi. Hammasi bo'lib 36 ta adabiyot manbasi va internet saytlari tahlil qilindi va ular adabiyotlar ro'yxatiga kiritildi, hamda nufuzli musobaqalar kuzatildi.

**2. Anketa so‘rovi.** Pedagogika amaliyotida tadqiqotning quyidagi so‘rov usullari: suhbat, intervyu olish va so‘rovnomadan foydalanish. Usullarning bu guruhi subyektiv hisoblanadi, chunki u respondentdan (so‘roqlanuvchidan) olinadigan og‘zaki axborotga asoslanadi.

Suhbat – o‘rganilayotgan masalani ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama muhokama qilish yo‘li bilan shaxsni o‘rganish va axborot olish usulidir. Suhbat usulidan xatti-harakatlarni muhokama qilish va tahlil etish hamda shaxsning ma’naviy bahosini ishlab chiqishda foydalaniladi.

**Voleybolchilarining texnik tayyorgarligini aniqlash bo‘yicha anketa so‘rovi natijalari va tahlili.** Yosh voleybolchilarining texnik-taktik harakatlarining rivojlanganlik darjasini aniqlash bo‘yicha so‘rov nomda o‘tkazilib, olingan natijalar tahlil qilinadi. Tahlil natijalari 4-jadvalda berilgan. Unda 20 nafar shug‘ullanuvchi qatnashdi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Voleybol texnikasini o‘rgatishda maxsus mashqlardan foydalaniладими?” degan savolga 12 tasi (60%) “ha” deb, 2 tasi (10%) “yo‘q” deb, 6 tasi (30%) “qisman” deb javob berishgan. “Texnik mahoratni shakllantirishda mashqlardan foydalaniладими?” degan 2-savolga 6 tasi (30%) “ha” deb, 6 tasi (30%) “yo‘q” deb, 8 tasi (20%) qisman deb javob bergenlar. Bunda “ha” va “yo‘q” deb javob bergenlar bir xil sonda bo‘lgan. 3-savolga, ya’ni “Murabbiyingiz mashg‘ulotlarda jismoniy holatlaringizda kelib chiqib, yuklamalar bergenmi?” degan savolga 4 tasi (20%) “ha” deb, 10 tasi (50%) “yo‘q”, 6 tasi (30%) “qisman” deb javob bergen. “Murabbiyingiz kuchli jamoalarni o‘yinlarini video orqali kuзatib tahlil qilganmi?” degan 4-savolga 4 tasi (20%) “ha” deb, 11 tasi (55%) “yo‘q” deb, 5 tasi (25%) “qisman” deb berishgan.

“To‘p uzatish texnikasini rivojlantirishda maxsus moslamalardan foydalananadimi?” degan 5-savolga 3 tasi (15%) “ha” deb, 12 tasi (60%) “yo‘q” deb, 5 tasi (25%) “qisman” deb javob bergenlar. Shug‘ullanuvchilarining javobidan ko‘rinib turibdiki, qo‘l va oyoq musullari kuchini rivojlantiruvchi mashqlardan murabbiylarimiz ham foydalanan ekanlar.

6-savolga, ya’ni “Murabbiyingiz texnik-taktik hrakatlari rivojlantirishga ko‘proq e‘tiborberadimi?” degan savolga 4 tasi “ha” (20%), 9 tasi (45%) “yo‘q”, 7 tasi (35%) “qisman” deb javob bergenlar.

Sotsiologik tadqiqot uslublari yosh voleybolchilarining sportga qiziqishlari va mashg‘ulotlarni olib borilishi to‘g‘risida ma’lumot olishga imkon yaratdi. So‘rovnomada ishtirok etgan bolalarining fikrlarini umumlashtirish va tahlil qilish natijasida kollejda olib borilayotgan vo-

leybol to‘garaklarida hujumkor zarba uchun to‘p uzatish texnikasini rivojlantirishga kam e’tibor berilishi va bu borada maxsus mashqlar moslama va uskunalardan foydalanilmasligi aniqlandi.

### 2.1-jadval

**Maktab o‘quvchilarining fikrlarini o‘rganish tahlili va natijalari (n=20)**

Nº	Savollar	“Ha”, %	“Yo‘q”, %	“Qisman”, %
1	“Voleybol texnikasini o‘rgatishda maxsus mashqlardan foydalaniladimi?”	12,60%	2,10%	6,30%
2	“Texnik mahoratni shakllantirishda mashqlardan foydalaniladimi?”	6,30%	6, 30%	8,40%
3	“Murabbiyingiz mashg‘ulotlarda jismoniy holatlaringizda kelib chiqib yuklamalar bergenmi?”	4,20%	10,50%	6,30%
4	“Murabbiyingiz kuchli jamoalarni o‘yinlarini video orqali kuzatib tahlil qilganmi?”	4,20%	11,55%	5,25%
5	“To‘p uzatish texnikasini rivojlantirishda maxsus moslamalardan foydalanadi-mi?”	3,15%	12,60%	5,25%
6	“Murabbiyingiz texnik-taktik hrakatlani rivojlantirishga ko‘proq e’tiborberadi-mi?”	4, 20%	9, 45%	7,35%

Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, ko‘pchilik murabbiylar mashg‘ulotlarda texnik-taktik harakatlarni rivojlantirishga uncha e’tibor bermas ekanlar. So‘rovnama davomida olingan natijalar va ularning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat murabbiylar mashg‘ulotlarni haliga-cha yangi uslublardan foydalanmay o‘tib kelishlari, yangicha yondashmasliklari tashvishiga soladi.

**3. Pedagogik kuzatuvalar.** Pedagogik kuzatuvalar butun tadqiqot davomida qo‘llanildi va amaldagi materialni olishning eng muhim uslubi bo‘lib xizmat qildi. Tajriba o‘tkazilishining boshlang‘ich bosqichida pedagogik kuzatuvalar voleybol bo‘yicha nufuzli musobaqlarda to‘p uzatuvchi o‘yinchining taktik harakatlari, ularning boshlang‘ich tayyorgarligi, to‘p uzatuvchi o‘yinchiga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi to‘g‘-

risidagi axborotni olish uchun qo'llanildi. Ishlab chiqilgan dasturni amalga oshirish mobaynida mashg'ulotlarning borishi kuzatildi, shug'ullanuvchilarning kayfiyatları, ularning olingan ko'nikmalarini takomil-lashtirish, yuqori natijalarga erishish istaklari qayd qilindi. Jamoalardagi ichki muhit, o'yinchilarning psixologik jihatdan bir-biriga muvofiqligiga alohida e'tibor qaratildi.

**4. Pedagogik-nazorat.** Nazorat sinovlarini tanlash ilmiy-uslubiy adabiyotlar ma'lumotlari va nazorat mashqlarining tahlili asosida amalga oshirildi. Natijada shug'ullanuvchilarning umumiyligi jismoniy tayyor-garligi, ularning jismoniy rivojlanishi va funksional holati darajasini tas-niflovchi testlar, voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini na-zorat qilish uchun foydalilaniladigan maxsus topshiriqlar, shuningdek, texnik tayyorgarlikni nazorat qilish uchun mashqlar tanlab olindi.

Jarohatlanishni oldini olish va jismoniy yuklamani bajarishga tay-yorlanish testlash oldidan tayyorlov mashqlaridan foydalaniildi. Ular or-ganizmning mashqlanishiga yordam berish uchun qo'llaniladi. Badan qizdirish tuzilishiga ko'ra, test mashqlariga yaqin bo'lgan mashqlarni o'z ichiga oldi. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni baholash uchun quyidagi mashqlar qo'llanildi: 30 metrga yugurish, 1000 metrga yugurish, 30 metrga mokisimon yugurish, uzunlikka sakrash, balandlik-ka sakrash, to'ldirma to'pni otish, yetib bir minut ichida gavdani ko'ta-rish.

Mashg'ulotlar jarayonida texnik tayyorgarligini baholash uchun maxsus test tadqiqotlari o'tkazildi. Ularning asosini nazorat me'yorlari tashkil qilgan edi.

Texnik tayyorgarlikni testlash dasturiga quyidagilar kiritilgan:

- to'p uzatish (har qanday);
- to'pni ikkala qo'lda yuqorida oshirish;
- belgilangan masofadan to'p uzatish;
- orqa zonadan chiqib belgilangan zonaga to'p uzatish.

To'p bиринчи мarta tushib ketgunga qadar to'g'ri bajarilgan texnik usullar baholash mezoni bo'lib xizmat qildi. Y.D.Jeleznyak (24) tomonidan tavsya qilingan usuliyat bo'yicha dastlabki tayyorgarlikdan so'ng, test sinovlarini o'tkazish nafaqat texnik tayyorgarlikni aniqlashga yordam beradi, balki taklif etilgan materialning individual o'zlashtirilishi to'g'risida tasavvur hosil qiladi.

**5. Antropometrik o‘lchov.** Antropometriya – o‘quvchilar jismoniylar rivojlanishining morfologik va bir qator funksional ko‘rsatkichlarini aniqlash usulublari va usullari yig‘indisi.

Antropometrik tekshiruvlarda bo‘y, vazn, ko‘krak qafasining aylanasi (tinch holatda, maksimal nafas olinganda, nafas chiqarilganda) o‘pkaning tiriklik sig‘imi, qo‘l kaftlari, belning kuchi (qo‘l va tana dinamometri yordamida) o‘lchanadi. Jismoniy rivojlanish ma’lumotlarini to‘plash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llanildi: vazn (kg), ko‘krak qafasi aylanasi (sm), chap va o‘ng qo‘l kaftlari kuchi (kg) (kaft dinamometrida baholandi), o‘pkaning tiriklik sig‘imi (ml) (quruq spirometr bilan aniqlandi), gavda kuchi (gavda kuchi dinamometri bilan baholandi).

**6. Matematik statistika usulublari.** Matematik-statistik uslub – bu ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha olingen ma’lumotlarni matematik hisoblashdan iborat, ya’ni natijalarini yig‘indisi, o‘rtachasi, o‘rtacha kvadratik og‘ish va hokazolar.

Tadqiqot natijalari statistik ishlab chiqildi, bunda guruhlarning ko‘rsatkichlari hisoblandi va o‘rtacha arifmetik standart og‘ishi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, to‘p uzatish ko‘rsatkichlari aniqlanib, ularning samaradorlik darajasi o‘rganilgan. Tadqiqotda yana olingen natijalarini o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichlari aniqlangan.

### **III BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI**

#### **3.1. Tadqiqotni yakunlash va shakllantirsh**

Ilmiy tadqiqotning so'nggi bosqichi uni yakunlash va shakllantirish bo'lib, odatda, buning tarkibiga izlanishlar natijalarini muhokama qilish va taqrizlash, ishni adabiy hamda texnik jihatdan shakllantirish belgilash kiradi.

**Pedagogik tadqiqot natijalari va ularning tahlili.** Tadqiqot davomida foydalanilgan uslublar, jadvallar, rasmlar va hokazolar tarzida keltirilib, qisqa va aniq bayon etib berilishi kerak. Muallif qo'lga kiritgan ma'lumotlar, adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga qay darajada mos kelishi tadqiqot natijalarini muhokama qilinayotgan vaqtida ko'rsatib o'tilishi, olingan natijalar sharhlab va asoslab berilmog'i lozim. Jumladan, mavzu bo'yicha ma'lumotlar tahlili, o'tkazilgan so'rovnomaning natijalari aniq ko'rsatkichlar balan jadvallarda yoritilishi darkor.

Mavzu bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotning natijalari ham yozma va jadvallarda aniq ko'rsatkichlar bilan yoritilishi talab qilinadi.

**Pedagogik tadqiqot natijalari.** Yosh voleybolchilarning sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirish uslublarini aniqlash bo'yicha 11–12 yoshli bolalar tanlab olindi. Ulardan turgan joydan balandlikka sakrash, yugurib kelib, balandlikka sakrash, o'tirib turish bo'yicha test o'tkazildi. Jadvaldan ko'riinb turibdiki (1-jadval), turgan joyda balandlikka sakrash testida qayd etilgan eng yaxshi natija 23 ga eng past natija 19 ga teng bo'lib, farq 4 ga teng bo'ldi. O'rtacha ko'rsatkich 21 ga teng ekanligi aniqlandi. Yugurib kelib, balandlikka sakrash testida eng yaxshi natija 35 ga eng past natija 29 ga teng bo'lib, ular o'rtaсидagi farq 6 ga, o'rtacha natija 31,5 teng bo'ldi. O'tirib-turish testi bo'yicha eng past natija 18 ga, eng yaxshi natija 30 ga teng bo'lib, farq 12 ga, o'rtacha natija esa 23,4 ga teng bo'ldi.

Voleybolda aksariyat o'yin malakalari sakragan holatlarda ijro etiladi, shuning uchun ushbu sifat foydali natijaga erishishda hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Yosh voleybolchilarni tanlab olgandan keyin sakrash va sakrash chidamkorligini rivojlantirish uchun bolalarning 10 tadan nazorat va tadqiqot guruhiga ajratildi. Nazorat guruhiga dastur asosida mashg'ulotlar olib borildi.

**3.1-jadval**

**11-12 yoshli voleybolchilarda jismoniy tayyorgarlikning rivojlanganlik holati  
(n=20)**

Nº	Ism va familiyasi	Turgan joyda balandlikka sakrash, sm	Yugurib ke- lib, balandlik- ka sakrash, sm	O'tirib- turish, marta
1	Daronbekov A.	20	30	26
2	Bahodirov Sh.	21	31	25
3	Jumaniyozov M.	19	29	27
4	Ibragimov O.	20	30	19
5	Madaminov Z.	21	31	20
6	Otayev Sh.	23	32	21
7	Qayumov Z.	22	32	20
8	Rustamov S.	21	30	30
9	Solayev G'.	20	32	22
10	Yusupov B.	21	33	27
11	Qozoqov D.	22	31	19
12	Yusupov G.	20	32	23
13	Murodov U.	20	30	18
14	Yo'ldoshev X.	20	31	22
15	Jumaniyozov X.	21	30	28
16	Matkarimov A.	22	34	27
17	Bobojonov M.	23	35	25
18	Sobirov S.	22	32	24
19	Matyoqubov O.	22	32	23
20	Masharipov O.	23	33	22
$\Sigma xi$		423	630	468
Min-max		19-23	29-35	18-30
$X \pm \sigma$		21,±0,7	31,5±0,9	23,4±0,4

Pedagoik tadqiqotdan so'ng har ikkala guruhdagi natijalar 3-4-jad-  
vallarda berilgan.

Turgan joyda balandlikka sakrash testi nazorat guruhida eng past natija 20, eng yaxshi natija 23 bo'lib, farq 3 ga teng, o'rtacha natija 20,8 dan 21,7 ga yaxshilanib o'sish 4,3% bo'lsa, bu ko'rsatkich tadqiqot guruhida 21,5 dan 23,9 ga yaxshilanib o'sish 11% bo'ldi. Eng past natija 22 ga, eng yaxshi natija 23 bo'lib, farq 3 ga teng bo'ldi. Yugurib kelib, balandlikka sakrash testida nazorat guruhida o'rtacha natija 31 dan 32 ga yaxshilangan bo'lib o'sish 3,2% bo'lsa, eng yaxshi natija 32 ga, eng past natija 31 ga teng bo'lib, farq 31 ga teng bo'ldi.

Tadqiqot guruhida o'rtacha natija 32 dan 35,1 ga yaxshilanib o'sish 9,7% ni tashkil qildi. Eng yaxshi natija 37 ga, eng past natija 33 ga teng bo'lib, farq 4 ga teng bo'ldi.

O'tirib turish testida nazorat guruhida o'rtacha natija 23,7 dan 24,4 ga yaxshilanib o'sish 3% bo'lgan bo'lsa, eng past natija 21 ga, eng yaxshi natija 32 ga teng bo'lib farq 11 ga teng bo'ldi.

### *3.2-jadval*

**Pedagogik tadqiqotdan keyin nazorat guruhida jismoniy tayyorgarlikning rivojlanganlik holati (n=10)**

Nº	Ism va familiyasi	Turgan joyda balandlikka sakrash, sm	Yugurib kelib, balandlikka sakrash, sm	O'tirib- turish, marta
1	Daronbekov A.	21	31	27
2	Bahodirov Sh.	22	32	26
3	Jumaniyozov M.	20	31	27
4	Ibragimov O.	21	31	20
5	Madaminov Z.	22	32	20
6	Otayev Sh.	23	33	21
7	Qayumov Z.	23	32	21
8	Rustamov S.	22	32	32
9	Solayev G'.	21	33	22
10	Yusupov B.	22	32	28
$\Sigma xi$		217	320	244
<b>Min-max</b>		<b>20-23</b>	<b>31-33</b>	<b>321-32</b>
<b>X±σ</b>		<b>21,7±0,6</b>	<b>32,0±0,9</b>	<b>24,4±0,2</b>

Tadqiqot guruhida esa o'rtacha natija 23,1 dan 26,3 ga yaxshilanib, o'sish 12,2% ni tashkil qildi. Eng past natija 22 ga, eng yaxshi natija esa 33 ga teng bo'lib farq 11 ga teng bo'ldi. Pedagogik tadqiqotdan so'ng har ikkala guruh natijalari 2 – 3-jadvallarda keltirilgan.

Bolalarni tanlab olgandan keyin ularni sport mahoratini oshirish yanada ham trenerdan yuksak mahoratni talab qiladi. Buning uchun mashg'ulotlarda yosh va jismoniy imkoniyatlardan kelib chiqib, mashg'ulotlar olib borish yuqori sport natijalariga erishish garovi bo'lib xizmat qiladi. Sport maktablaridagi an'anaviy dastur bolalarni jismoniy va texnik tiayyorgarliklarini oshirishda yaxshi samara beradi. Biroq zamonaviy sportda yangi mashg'ulot uslublarini ishlab chiqib ilmiy asoslab berish zarur.

Shundan kelib chiqqan holda, voleybol bilan shug'ullanishni istagan yosh bolalarni tanlab olgandan keyin, tadqiqot guruhida olib boriladigan mashqlar samaradorligini aniqlash maqsadida ularni nazorat va tadqiqot guruhlariga ajratdik. Shu asnoda tadqiqot guruhida maxsus mashqlar olib borildi (3-jadval).

### 3.3-jadval

**Tadqiqotdan keyin tadqiqot guruhida jismoniy tayyorgarlikning rivojlanganlik holati (n=10)**

Nº	Ism va familiyasi	Turgan joyda balandlikka sakrash, sm	Yugurib kelib, balandlikka sakrash, sm	O'tirib-turish, marta
1	Qozoqov D.	24	34	23
2	Yusupov G.	22	35	26
3	Murodov U.	23	34	22
4	Yo'ldoshev X.	24	33	25
5	Jumaniyozov X.	24	33	33
6	Matkarimov A.	24	37	30
7	Bobojonov M.	24	37	28
8	Sobirov S.	25	36	26
9	Matyoqubov O.	24	36	25
10	Masharipov O.	25	36	25
	$\Sigma xi$	239	351	263
	<b>Min-max</b>	<b>22-25</b>	<b>33-37</b>	<b>22-33</b>
	$X \pm \sigma$	$23,9 \pm 0,2$	$35,1 \pm 0,3$	$26,3 \pm 0,8$

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yosh voleybolchilarni tanlab olib tarbiyalashda maxsus mashqlar samaradorligi yuqori

ekan. Tadqiqot natijalarini qiyoslash uchun quyidagi jadvaldan foydalandik (4-jadval). Unda har ikkala guruhning natijalari taqqoslangan.

Tadqiqotdan keyin har ikkala guruhdagi natijalar solishtirib chiqilganda tadqiqot guruhi natijalarining o'sishi nazorat guruhi natajalariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Demak, olib borilgan tadqiqotga ko'ra, sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirishda maxsus mashqlar samarasi juda katta ekanligini isbotladi. Tadqiqot guruhida olib borilgan mashg'ulotlar jismoniy tayyorgarlikni o'sishiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, yosh sportchilarda uzlucksiz mashg'ulotlar o'tkazish ularni sakrash kuch hamda chidamkorlik qobiliyatlarini oshirishda katta rol o'ynadi.

### 3.4-jadval

**Pedagogik tadqiqotdan oldin va keyin har ikkala guruhdagi natijalar (n=20)**

№	Test mashqlari	Guruhlar		
		Nazorat $X \pm \sigma$	Tadqiqot $X \pm \sigma$	
1	Turgan joyda balandlikka sakrash, sm	Tadqiqotdan oldin	$20,8 \pm 0,9$	$21,5 \pm 0,7$
		Tadqiqotdan keyin	$21,7 \pm 0,6$	$23,9 \pm 0,2$
2	Yugurib kelib, balandlikka sakrash, sm	Tadqiqotdan oldin	$31,0 \pm 0,4$	$32,0 \pm 0,6$
		Tadqiqotdan keyin	$32,0 \pm 0,1$	$35,1 \pm 0,9$
3	O'tirib turish, marta	Tadqiqotdan oldin	$23,7 \pm 0,6$	$23,1 \pm 0,7$
		Tadqiqotdan keyin	$24,4 \pm 0,2$	$26,3 \pm 0,8$


Olingan natijalarni foizlarda o'sish dinamikasini ham ifodalash mumkin.

Shug'ullanuvchilarni o'rganilgan texnik usullarni o'zlashtirish daramasini tadqiqotdan so'ng har ikkala guruhdagi o'sish dinamikasi quyidagicha bo'ldi. Hujumkor zarba texnikasini bajarish bo'yicha nazorat

guruhida 7%, tadqiqot guruhi 16,6% o'sdi. O'yinga to'p kiritish texnikasini bajarish bo'yicha nazorat guruhida 6%, tadqiqot guruhida 13% ga o'sish kuzatildi (1-rasm).

Pedagogik tadqiqot davomida olib borilgan mashg'ulotlar (o'rgatish uslubiyati va vositalar, maxsus mashqlar va moslamalar) tajriba guruhida nafaqat texnik tayyorgarlikni samarali rivojlanishiga olib keldi, balki shu samarali rivojlangan sifatlar ta'sirida taktik usullarni bajarish aniqligiga ijobjiy ta'sir etdi.

Olingan natijalar mакtabda dars va darsdan tashqari voleybol mashg'ulotlari tarkibiga o'rgatish uslublari va vositalarini kiritish va ulardan maqsadli foydalanish yosh voleybolchilarda o'yin texnikalarini samarali bajarish va tez o'rganish malakalarini jadallroq shakllanishiga asos bo'ldi.



*I-rasm. Yosha voleybolchilarning pedagogik tadqiqot davomida texnik tayyorgarligi dinamikasi*

### 3.2. Tadqiqot ishiga xulosa qilish

Bitiruv malakaviy ishi o'tkazilgan tadqiqot natijasi aks ettiriladigan xulosa bilan yakunlanadi. Bitiruv malakaviy ishiining bu bo'lumi, odatda, umumiy ish hajmining 3 – 5% ni tashkil etishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining eng muhim ma'lumotlari ishning oxirida, "Xulosa" bo'limida aks ettirilishi kerak. Olingan natija bu xulosalar sifatida ifodalanadigan vazifalar echimidir.

Xulosa o'tkazilgan tadqiqot mantiqi bilan bog'liq bo'lgan xotima rolini bajarib, u asosiy qismida to'plangan ilmiy axborotlar sintezi shak-

lida bo‘ladi. Bunday sintez olingan yakunlarning izchil, mantiqiy tekis bayoni va ularning kirishda qo‘yilgan va ifodalangan umumiy maqsad va aniq vazifalar bilan o‘zaro nisbatidir.

## XULOSA

Adabiyotlar tahlili, so‘rovnoma va pedagogik tajriba natijalari hamda ularning qiyosiy tahlili quyidagi xulosa va tavsiyalarni e’tirof etish imkonini berdi:

1. Voleybol bo‘yicha malakali sport zaxiralarini tayyorlash va mamlakat terma jamoasi uzviyligini ta‘minlashda yosh voleybolchilarni tayyorlash ustuvor masala bo‘lib, ushbu jarayonni samarali tashkil qilish to‘p uzatish va qabul qilish kabi o‘yin malakalarning jadal shakllanishi-ga asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. So‘rovnomada ishtirok etgan bolalarning fikrlarini umumlashtirish va tahlil qilish natijasiga ko‘ra, kollejlarda voleybol mashg‘ulotlari-da to‘p uzatishga, asosan, kam e’tibor berilishi va bu borada maxsus mashqlar moslama va uskunalar yordamida mashg‘ulotlar olib borilmashi-gi aniqlandi.

3. Pedagogik tadqiqot davomida olib borilgan mashg‘ulotlar (maxsus mashqlar va vositalar) tajriba guruhida nafaqat texnik tayyorgarlikni samarali rivojlanishiga olib keldi, balki shu samarali rivojlangan sifatlar ta’sirida taktik usullarni bajarish aniqligiga ijobjiy ta’sir etdi.

4. Olingan natijalar kasb hunar kollejlarda voleybol mashg‘ulotlari tarkibiga maxsus mashqlar hamda maxsus moslamalarni kiritish va ular-dan maqsadli foydalanish yosh voleybolchilarda to‘p uzatish aniqligi va texnik usullarni samarali bajarish malakalarini jadalroq shakllanishiga asos bo‘ldi.

### 3.3. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish

Ushbu ro‘yxat bitiruv malakaviy ishining amaldagi qismlaridan birini tashkil etadi va tadqiqotchining mustaqil ijodiy ishini aks ettiradi.

Bunday ro‘yxatga kiritilgan har bir adabiy manba bitiruv malakaviy ishining qo‘lyozmasida aks ettirilishi kerak. Agar ish muallifi o‘z-lashtirilgan qandaydir faktlarni qayd qilsa yoki boshqa mualliflar asarlaridan parcha keltirsa, unda u, albatta, keltirilgan materiallarning qaerdan olinganligini satr yoki raqamlar (snoska) ostida ko‘rsatib o‘tishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishining matnida qayd qilinmagan va amalda ishlatalmagan ishlarni foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga kiritmaslik kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1	Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги конуни. Т., 1997.
2	“Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси конуни (янги таҳрири). “Халқ сўзи”, 2000 йил 27 май.
3	Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. Т., 1997.
4	Каримов И.А. “Юксак малакали кадрлар – тараккиёт манбай”. Т., “Ўзбекистон”, 1996.
5	Каримов И.А. “Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори”. Т., 1997.
6	Каримов И.А. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. Т., “Маънавият”, 2008.
7	Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T., O‘zDJTI, 2011.
8	Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самараали бошқариш. Монография. Т., ЎзДЖТИ, 2005, 235 бет.
9	Азизходжаева Н.Н. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда педагогик технологиялар. Ўқув-услубий қўлланма, Тошкент, 2007, 20 бет.
10	Керимов Ф.А. Спорт соҳасида илмий тадқиқотларни олиб бориш. Дарслик. Т., 2005, 334 бет.
11	Керимов Ф.А., Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. Дарслик. ЎзДЖТИ, Т., 2005, 280 бет.
12	Ходиев Б.Ю. ва бошқалар. Илмий тадқиқотчилик фаолиятига тайёргарлик асослари. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент (иккинчи нашр), “Экономика”, 2008, 138 бет.
13	Машрипов Ф. Т. Олий ўқув юртлари спорт такомиллашуви гурӯхларида волейбол воситаларидан устувор фойдаланишнинг табақалаштирилган усулияти. Автореф. дис...канд. пед. наук. Т., 2008, 23 с.
14	Саломов Р.С. Спорт машғулотнинг назарий асослари. Ўқув қўлланма. Т., ЎзДЖТИ, 2005, 238 бет.

15	Саломов Р.С. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. Ўкув қўлланма. Тошкент, ЎзДЖТИ, 2009, 48 бет.
16	Сейтхалилов Э.А. Таълим сифати устуворлиги – ўзгармас талаб. “Фан – спортга”, Т., 2004, 1-сон, 20 – 24-бетлар.
17	Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. Учебник. Тошкент, ЎзДЖТИ, 2007, 311 бет.
18	Ярашев К.Д. Жисмоний тарбия ва спортни бошқариш. Дарсларлик. Т., Ибн Сино нашриёти, 2002, 180 бет.

## ILOVALAR

### **Bitiruv malakaviy ishini yozish va rasmiylashtirishning asosiy qoidalari**

Bitiruv malakaviy ishiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri – bu uning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi bo‘lib, bu nafaqat ish sifatini yaxshilaydi, shu bilan birga, uning muvaffaqiyatini ham ta’minlaydi. Bitiruv malakaviy ishi o‘zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi ilmiy ish hisoblanadi, shuning uchun uning yozilishi va rasmiylashtirilishiga asosiy talablar magistrlik dissertatsiya-si va nomzodlik dissertatsiyalari natalablariga yaqinlashtirilishi kerak, jumladan:

1. Materialning aniq va izchil bayon qilinishi bitiruv malakaviy ishini yozishning asosiy tamoyilidir.
2. Yangi fikrni boshlaydigan iboralar xatboshidan yoziladi.
3. Matnning tugallanmagan qismlarini boshqa sahifalarga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.
4. Agar matnda boshqa manbalardan olingan materiallar ishlatsa, unda ko‘chirmachilikda ayblanmaslik uchun ular manbayini, albatta, matnda qayd qilish kerak.
5. Ko‘chirmalar sahifa tagida xatboshi bilan yoki qizil satr bilan teriladi. Agar bir necha manba qayd qilinsa, unda ular izchil tartibda raqamlanadi (snoskalanadi).

Ish 10 – 15 ming so‘z hajmida bo‘lishi kerak. Bitiruv malakaviy ishlari kompyuterda yozilib, asosiy qism 50 – 60 betgacha bo‘lgan hajmda, 1,5 intervalda chapdan 3 sm, yuqorida 2 sm, quyidan 2 sm, o‘ng tomonдан 1,5 sm, qog‘oz o‘lchovi 210x297 mm kompyutering Microsoft Word dasturida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattaligida yoziladi. Betlash uchinchi betdan boshlanib, pastdan o‘rtaga qo‘yiladi.

Ish uchta bobdan iborat bo‘lib, har bir bob yangi sahifadan boshlab yoziladi. Bobning nomidan keyin kichik mavzu sarlavhasi qo‘yiladi.

Bob yoki sarlavhalarning nomi asosiy matndan qo‘srimcha interval bilan ajratib yoziladi. Boblar va sarlavhalarning nomlari xatboshisidan yoziladi, nuqta qo‘yilmaydi, tagiga chizib, ta’kidlanmaydi.

Birinchi bobda mavzuning adabiy manbalar bo‘yicha o‘rganish holati, ya’ni “*Adabiyotlar tahlili*”dan iborat bo‘ladi. Ikkinci bobda “*Tadqiqot vazifalari, uslublari va tashkil etilishi*” yoritiladi. Uchinchi

bobda “**Tadqiqot natijalari va ularning tahlili**” bayon qilinadi. Boblar nomi katta harflar bilan qoraytirib, qog‘ozning o‘rtasiga avtomatik tarzda keltirib yoziladi. Jadvallarning nomi va nechanchi jadvalligi ust qismiga yoziladi. Rasmlar hamda sxemalarni izohi va nechanchi rasmligi past qismiga yoziladi.

Adabiyotlar tahlili bo‘yicha o‘rganilgan ilmiy manbalarni raqamlash (snoska) qavs ichida ko‘rsatiladi. Masalan, 1, 3, 5, 10, 14.

Kafedraning tavsiyasiga binoan, bitiruv malakaviy ish chet tillarining birida bajarilishi mumkin. Chet tilida bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta’milanadi. Bitiruv malakaviy ishi standartlarga muvofiq keladigan bosmaxona usulida muqovalangan bo‘lishi kerak.

### **Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi**

Bitiruv malakaviy ishining muayyan kompozitsion tuzilishi an’-anaviy tarzda qaror topgan, uning asosiy elementlari quyidagi tartibda joylashgan bo‘ladi:

1. Titul varag‘i.
2. Mundarija.
3. Kirish.
4. Asosiy qism (3-bob).
5. Xulosa.
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.
7. Ilovalar.

### **Titul varag‘ini rasmiylashtirish**

Titul varag‘i bitiruv malakaviy ishining bиринчи sahifasi hisoblana-di va qat’iy belgilangan qoidalar bo‘yicha to‘ldiriladi.

Bitiruv malakaviy ishining titul varag‘ini rasmiylashtirish quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi kerak. Bunda:

- OTMning nomi;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining nomi;
- talabaning ismi familiyasi va otasining ismi;
- ilmiy rahbarining ismi sharifi va ilmiy darajasi;
- shahar nomi va yil bosh harflar bilan yoziladi.

Shriftni tanlashda faqat Times New Roman shriftlaridan foydalanish maqbuldir (1-ilova).

*I-ilova*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*

**ABDULLAYEV SARVAR SHAVKATOVICH**

**YUQORI MALAKALI VOLEYBOLCHILAR TAYYORGARLIGIDA  
YUKLAMALARNI NAZORAT QILISH**

**5112001-Jismoniy madaniyat bakalavr darajasini olish uchun  
yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar**

dots. A.B.Kamolov \_\_\_\_\_

**Urganch – 2014**

## Mundarijani shakllantirish

Titul varag'idan keyin mundarija joylashtiriladi. Boblar va kichik mavzularning shu yerda ko'rsatilgan nomlari, shuningdek, ularning izchilligi bitiruv malakaviy ishi matni va bitiruv malakaviy ishining mantiqiy tuzilmasiga mutlaqo mos bo'lishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishining mundarijasи quyidagicha tartibda bo'лади:

### MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	2
<b>I bob. Sportchilar tayyorlashning dolzarb masalalari</b>	6
1.1. Sportchilar tayyorlash tizimiga tavsif	6
1.2. Jismoniy tayyorgarlik va jismoniy sifatlarni tarbiyalash uslubiyati	13
1.3. Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari va mazmuni	17
1.3.1. Mashg'ulot jarayonining uzlusizligi, yuklama va dam olish rejimi	20
1.4. Mashg'ulot yuklamalarining asta-sekin va maksimal ortib borishi	22
1.4.1. Sport mashg'ulotlari tizimida tayyorgarlik mashqlari	26
1.4.2. Sportdagi yuklama va uni sportchi organizmiga ta'siri	29
1.5. Mashg'ulot jarayonining tuzilishi	33
<b>II bob. Tadqiqot vazifalari, uslublari va tashkil etish</b>	47
2.1. Tadqiqot vazifalari	47
2.2. Tadqiqot uslublari	47
2.2.1. Ilmiy-uslubiy adabiyot manbalarini tahlil qilish va umum-lashtirish	47
2.2.2. Voleybol mashg'ulotlari jarayonini pedagogik kuzatish	47
2.2.3. Pedagogik tajriba va nazorat	48
2.2.4. Matimatik-statistik uslub	48

2.3. Tadqiqotning o'tkazilishi	48
<b>III bob. Pedagogik tadqiqot natijalari va ularning tahlili</b>	49
3.1. Yuqori malakali voleybolchilar va terma jamoalar bilan mashg'ulot o'tkazish xususiyatlari	49
3.2. Yuqori malakali voleybolchilar mashg'ulotining davrlarga bo'linishi	51
3.3. Pedagogik tadqiqot natijalari	61
Xulosa	70
Foydalanilgan adabiyotlar	71

### **Foydalanilgan ilmiy-adabiy manbalarni rasmiylashtirish**

Ishning bayoni jarayonida talaba mazmun shartlariga muvofiq joylashtirilgan jadvallar, rasmlar, misollar, sxemalar, formulalar va boshqa elementlarni qayd qilib o'tishi mumkin, bunday qismlar o'zлari tegishli bo'lgan matn bilan yonma-yon qо'yimasligi ham mumkin.


Adabiyotlar tahlili bo'yicha o'r ganilgan ilmiy manbalarni raqamlash (snoska) kavs ichida ko'rsatiladi. Masalan: 1, 3, 5, 10, 14. Boshqa manbalardan olingan barcha materiallarni izohda ko'rsatish kerak.

### **Statistik materiallar, tahliliy va ishchi jadvallarini rasmiylashtirish**


Bitiruv malakaviy ishida matematik statistik materiallar, tahliliy va ishchi jadvallari beriladi. Statistik materiallar matnda bayon qilingan axborotni qayd qilish uchun ishlatiladi.

Tahliliy jadvallar umumlashtiruvchi xulosalar va izohlarni talab qiladi. Ma'lumotlari ilgari matbuotda e'lon qilingan jadvallardan foydalanishda ushbu o'zlashtirilgan materialning ayni qaysi manbada keltirilganligini izohda, albatta, ko'rsatish kerak. Agar matnda xorijiy tillardagi takliflar, qo'shimchalar yoki so'zlar mavjud bo'lsa, unda ular to'liq yozilishi kerak.

Ishlatilgan grafiklar, sxemalar, diagrammalar, rasmlar rasm ostidagi yozuv bilan to'ldirilishi lozim (2-ilova).



*1-rasm. Yosh voleybolchilarning pedagogik tadqiqot davomida texnik tayyorgarligi dinamikasi*



*3-rasm. To'p uzatishga doir mashqlar.*

Jadvallar quyidagicha rasmiylashtirildi:

*3-jadval*  
**Tadqiqotdan keyin tadqiqt guruhiha jismoniy tayyorgarlikning  
 rivojlanganlik holati (n=10)**

<b>№</b>	<b>Ism va familiyasi</b>	<b>Turgan joyda balandlikka sakrash, sm</b>	<b>Yugurib kelib, balandlikka sakrash, sm</b>	<b>O'tirib-turish, marta</b>
1	Qozoqov D.	24	34	23
2	Yusupov G.	22	35	26
3	Murodov U.	23	34	22
4	Yo'ldoshev X.	24	33	25
5	Jumaniyozov X.	24	33	33
6	Matkarimov A.	24	37	30
7	Bobojonov M.	24	37	28
8	Sobirov S.	25	36	26
9	Matyoqubov O.	24	36	25
10	Masharipov O.	25	36	25
<b><math>\Sigma</math> xi</b>		<b>239</b>	<b>351</b>	<b>263</b>
<b>Min-max</b>		<b>22-25</b>	<b>33-37</b>	<b>22-33</b>
<b><math>X \pm \sigma</math></b>		<b><math>23,9 \pm 0,2</math></b>	<b><math>35,1 \pm 0,3</math></b>	<b><math>26,3 \pm 0,8</math></b>

Agar jadval juda katta bo'lsa, unda u navbatdagi sahifaga ko'chiriladi, bunda jadval sarlavhasi takror yozilmaydi, o'ngdag'i yuqori burchagida "Jadvalning davomi" degan yozuv yoziladi. Jadvallar nomi faqat birinchi qismida yoziladi. Jadvaldan keyin, albatta, tahlil beriladi.

Qo'shimcha rasmlar, sxemalar va grafiklar ilovada keltiriladi. Har bir ilova yangi sahifadan boshlanadi va 1-ilova, 2-ilova va shu kabi tarzda ifodalanadi.

### **Ilovalarni rasmiylashtirish**

Ilovalar bitiruv malakaviy ishining oxirida bibliografik izohdan keyin aks ettiriladi, axborot manbalari, albatta, jadvallar va suratlar tagida ko'rsatiladi, varaqlarda sahifalar raqamlari qo'yilmaydi.

## Foydalanilgan manbalarni rasmiy lashtirsh qoidalari

Ishda foydalanilgan adabiyotlarning bibliografik ro'yxati ishning oxirida joylashtiriladi. Adabiyotlar bibliografik bayonda quyidagi izchilikda joylashtiriladi:

1. Qonunlar, me'yoriy-uslubiy hujjatlar va materiallar.
2. Mamlakatimizda va chet ellarda bosilgan ilmiy adabiyotlar (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, ilmiy maqolalar, ilmiy risolalar va hokazo).
3. Internet-resurslar. Har bir boshlang'ich manbalar bo'yicha quydagilar ko'rsatiladi: muallif familiyasi, so'ngra uning ismi-sharifi, kitob nomi, shahar nomi, nashriyot nomi, bosilgan yili, foydalanilgan sahifa.

Agar kitob mualliflari uch va undan ortiq kishilardan iborat bo'lsa, unda birinchi muallifning familiyasi, ismini ko'rsatib, so'ngra "va boshqalar" deb qo'yish ham mumkin.

Shaharlar nomlari qisqartirmasdan, bosh kelishikda yoziladi. Moskva, Leningrad, Sankt-Peterburg va Toshkent kabi shaharlar nomlarini qisqartirib yozish mumkin: Moskva – M., Leningrad – L., Sankt-Peterburg – SP., Toshkent – T., Agar kitob ikki shaharda bosilgan bo'lsa, unda ikkalasi ham yoziladi, masalan, M., – L.

Agar kitobni ikki nashriyot chiqargan bo'lsa, unda har ikkala nashriyot nomi ham yoziladi, masalan, T., "Fan", "Ekonomika".

Davriy matbuot haqidagi ma'lumotlarda quydagilar ko'rsatiladi: muallifning familiyasi, ismi-sharifi, maqola nomi, jurnal yoki gazeta nomi, seriya nomi, jurnal yoki gazetaning bosilgan yili, jurnal yoki gazeta jildi va raqami, sahifa raqami.

### Masalan:

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1.	"Таълим тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси қонуни. Т., 1997.
2.	"Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонуни (яngi taxriri). "Халқ сўзи", 2000 йил 27 май.
3.	Ўзбекистон Республикасининг "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури". Т., 1997.
4.	Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори. Т., "Шарқ", 1997, 63 бет.
5.	Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент, "Ўзбекистон", 1999, 1 – 150-бетлар.
6.	Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. Тошкент, ЎзДЖТИ, 2005, 300 бет.

7.	Ayrapetyants L.R. Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Т., 2011, 280 бет.
8.	Айрапетьянц Л.Р. Развитие и положительное использование научного и технического потенциала. “Фан – спортга”, Т., 2004, № 1, с. 17 – 20.
9.	Керимов Ф.А. Спорт сохасида илмий тадқикотларни олиб бориш. Т., 2005, 334 бет.
10.	Керимов Ф.А., Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. Т., 2005, 280 бет.
11.	Машрипов Ф.Т. Олий ўкув юртлари спорт такомиллашуви гурухларида волейбол воситаларидан устувор фойдаланишининг табақалаштирилган усулияти. Автореф. дис...канд. пед. наук, Т., 2008, 23 с.
12.	Саломов Р.С. Спорт машғулотининг назарий асослари. Т., ЎзДЖТИ, 2005, 238 бет.
13.	Сейтхалилов Э.А. Таълим сифати устуворлиги – ўзгармас талаб. “Фан – спортга”, Т., 2004, 1-сон, 20 – 24-бетлар.
14.	Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. Тошкент, 2007, 311 бет.
15.	Roure R., Collet C., Deschaumes-Molinaro C., Dittmar A., Rada H., Delhomme G., Schutz L.K. Volleyball. Phys Med Rehabil Clin N Am 1999 Feb; 10 (1): 19 - 34.
	<a href="http://www.zivonet.uz">www.zivonet.uz</a>
	<a href="http://www.google.uz">www.google.uz</a>
	<a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a>
	<a href="http://www.sport.uz">www.sport.uz</a>
	<a href="http://www.ursu.uz">www.ursu.uz</a>
	<a href="http://www.dissertant.uz">www.dissertant.uz</a>

### **Bitiruv malakaviy ishini himoyaga tayyorlash tartibi**

Bitiruv malakaviy ishini texnik rasmiylashtirish ishi tugallangandan keyin, talaba bitiruv malakaviy ishini himoyaga tayyorlashga lozim darajada e'tibor berishi kerak. Bunday tayyorgarlik, avvalo, himoya bilan bog'liq hujjatlar va materiallarning rasmiylashtirilishini o'z ichiga oladi.

### **Tadqiqot ishiga beriladigan taqrizlarni tayyorlash**

Bitiruv malakaviy ishi majburiy tartibda taqriz qilinadi. Taqrizchi kafedra tomonidan tayinlanadi. Taqrizchi ishning mohiyati va asosiy qoidalarining malakali tahlilini o'tkazishi, shuningdek, tanlangan mavzu-

ning dolzarbligi, uning ochib berilishiga yondashuvning mustaqilligi, o‘zining nuqtayi nazari borligi, ilmiy tadqiq qilish uslublaridan foydalanish mahorati, xulosalar va tavsiyalarning aniqligi darajasi, olingan natijalarning ishonchliligi, ularning yangiligi va amaliy ahamiyatini baholashti kerak.

Ishning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning kamchiliklari, jumladan, faktik xatolar kabilar ham qayd qilinadi. Taqriz hajmi, odatda, kompyuterda terilgan 2 – 3 sahifagacha matndan iborat bo‘ladi.

### **Bitiruv malakaviy ishining taqriziga talablar**

Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar va tashqi taqrizchining taqrizi berilib, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

#### **Ilmiy rahbar taqrizining mazmuni:**

1. Bitiruv malakaviy ishining dolzarbliji.
2. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.
3. Muallifning bitiruv malakaviy ishi maqsadlari va vazifalarining yoritishi darajasi.
4. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.
5. O‘tkazilgan tadqiqot natijalarining asoslanganligi.
6. Talabaning xulosalari va tavsiyalarining sifati.
7. Tadqiqot ishining bitiruv malakaviy ishlariga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi.

#### **Tashqi taqrizchi quyidagilarni aks ettirishi kerak:**

1. Bitiruv malakaviy ishining dolzarbliji.
2. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.
3. Tayyorlangan bitiruv malakaviy ishining amaliyot uchun ahamiyati.
4. Bitiruv malakaviy ishining mazmuni va tugallanganligining bahosi.
5. Materialning bayon qilinishi va tili.
6. O‘tkazilgan tadqiqotning ilmiy va amaliy qimmati.
7. Tadqiqot ishining bitiruv malakaviy ishlariga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi.

## **Bitiruv malakaviy ishini himoya qilishga ruxsat olish**

Talab darajada rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishini taqrizlar bilan birga (ikki nusxada) kafedraga taqdim etiladi. Kafedra bu ishni ko'rib chiqib, oldindan himoya qilish kuni va vaqtini tayinlaydi. Oldindan himoyadan o'tgan bitiruv malakaviy ishini kafedraning majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va himoyaga tavsya etiladi.

Talaba bitiruv malakaviy ishi yuzasidan 10 – 15 minutlik ma'ruzani tayyorlaydi va axborot vositalaridan foydalangan holda himoya qiladi.

## **Bitiruv malakaviy ishining ommaviy himoyasini o'tkazish qoidalari**

Bitiruv malakaviy ishining himoyasi ommaviy shaklda, ilmiy munozara tusida bo'ladi va yuksak talabchanlik, prinsipiallik va ilmiy etikaga rioya qilish vaziyatida o'tadi.

Bitiruv malakaviy ishining himoyasi paytida davlat attestatsiya komissiyasi raisi bitiruv malakaviy ishining nomini e'lon qiladi, uning muallifi familiyasi, ismini ma'lum qiladi, shuningdek, ishda zarur hujjatlarning mavjudligini bildiradi, talabaning "ta'limiy va ilmiy tarjimayi holini", uning o'zlashtirishi, mabodo, mavjud bo'lsa, e'lon qilgan maqolalarini qisqacha tavsiflaydi.

Shundan so'ng so'z talabaning ilmiy rahbariga beriladi. Ilmiy rahbar o'z nutqida talabaning bitiruv malakaviy ishi ustida olib borgan ishga munosabatini ochib beradi, shuningdek, attestatsiya komissiyasi, ilmiy rahbarning bergen savollari xususida o'z fikrini bildiradi, raislik qiluvchi ilmiy rahbarning bitiruv malakaviy ishi haqidagi yozma xulosani davlat attestatsiya komissiyasi a'zolariga o'qib beradi.

So'ngra talabaning o'ziga so'z beriladi. Talaba nutqini oldindan tayyorlagan ma'ruzasi asosida quradi (imkonli boricha, uni yoddan aytib bergani ma'qul). Tadqiqot natijalarini ma'lum qilish uchun unga 15 minutgacha vaqt beriladi.

Ma'ruba tadqiqotning metodologik bazasini, qo'yilgan vazifalar yechimi natijalarini va bitiruv malakaviy ishining mavzusi bo'yicha tavsyalarni o'z ichiga oladi. Talaba asosiy diqqat-e'tiborini o'tkazilgan tadqiqotning asosiy yakunlari, o'zi shaxsan ishlab chiqqan yangi nazariy va

amaliy qoidalarga qaratib, tayyorlangan slaydlar, jadvallar va grafiklar-  
dan foydalanib, ishning qisqacha mazmunini yoritib beradi.

Nafaqat talaba nutqi matnining mazmuni, shu bilan birga, nutqning  
o'zi ham himoya muvaffaqiyatini oldindan belgilab beradi. Talaba nutqi  
aniq, imloviy jihatdan to'g'ri, tushunarli va ifodali bo'lishi kerak. U  
hamma savollarga ishonch bilan, ilmiy dalillar asosida javob berishi, er-  
kin nutq qoidalariiga amal qilishi lozim.

Talabaning nutqidan keyin, raislik qiluvchi bajarilgan bitiruv mala-  
kaviy ishiga taqrizchining taqrizini o'qib beradi va taqrizchi bildirgan  
fikrlarga o'z javobini aytishi va taqrizchining xulosalari hamda tavsiya-  
lari yuzasidan fikr-mulohazalarini bayon qilishi uchun talabaga so'z be-  
radi.

Shundan so'ng muhokama va ilmiy munozara jarayoni boshlanadi.  
Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolari mavzu bo'yicha ko'tarilgan mu-  
ammolar, tadqiqot uslublari bo'yicha har qanday savollarni berishi, tad-  
qiq etish tartib-qoidalari va tajriba ishi natijalarini aniqlashtirishi mum-  
kin.

Bunday savollarga javob berishda faqat ish mohiyatiga daxl qili-  
nishi lozim. Talaba o'zining ilmiy natijalarini baholashda kamtarinlik va  
davlat attestatsiya komissiyasi a'zolariga nisbatan ehtiromli munosabat  
namoyon qilishi zarur.

Javob berishdan oldin, savolni diqqat bilan tinglash va zarur bo'l-  
ganida, savolni yozib olishi kerak. Har bir berilayotgan savolga, imkon  
boricha, izchillik bilan javob qaytarish lozim, savollarning hammasini  
eshitib bo'lib, faqat shundan keyin birdaniga javob berish yaramaydi.

Munozara tugaganidan so'ng, talabaga yakunlovchi so'z berilishi  
ham mumkin.

Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolarining yopiq majlisida himo-  
yaga yakun yasaladi. Bunday qaror komissiya a'zolari ovozlarining od-  
diy ko'pchiligi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganida, rais-  
ning ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi. So'ngra rais majlisda ishtirok  
etuvchilarga bitiruv malakaviy ishini himoya qilgan tadqiqotchilarga ba-  
kalavr darajasining berilishini bildiradi va komissiya majlisini yopiq,  
deb e'lon qiladi.

### Foydalaniłgan adabiyotlar:

1	Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. Т., 1997.
2	“Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни (яғни таҳрири). “Халқ сўзи”, 2000 йил 27 май.
3	Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллӣй дастури”. Т., 1997.
4	Каримов И.А. “Юксак малакали кадрлар – тараққиёт манбаи”. Т., “Ўзбекистон”, 1996.
5	Каримов И.А. “Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори”. Т., 1997.
6	Каримов И.А. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. Т., “Маънавият”, 2008.
7	Аугаретяnts L.R. Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Дарслик. Т., ЎзДЖТИ, 2011, 280 бет.
8	Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. Монография. Т., ЎзДЖТИ, 2005, 235 бет.
9	Азизходжаева Н.Н. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда педагогик технологиялар. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент, 2007, 20 бет.
10	З. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. Дарслик. ЎзДЖТИ, Т., 2004, 334 бет.
11	Керимов Ф.А., Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. Дарслик. ЎзДЖТИ, Т., 2005, 280 бет.
12	Ходиев Б.Ю. ва бошқалар. Илмий тадқиқотчилик фаолиятига тайёргарлик асослари. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент, иккинчи нашр, “Экономика”, 2008, 138 бет.
13	Машрипов Ф.Т. Олий ўқув юртлари спорт такомиллашуви гурӯҳларида волейбол воситаларидан устувор фойдаланишининг табақалаштирилган усулияти. Автореф. дис... канд. пед. наук, Т., 2008, 23 с.
14	Саломов Р.С. Спорт машғулотининг назарий асослари. Т., Ўқув қўлланма. ЎзДЖТИ, 2005, 238 б.
15	Саломов Р.С. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. Тошкент, ЎзДЖТИ, 2009, 48 бет.
16	Сейтхалилов Э.А. Таълим сифати устуворлиги – ўзгармас та-

	лаб. “Фан – спортга”, Т., 2004, 1-сон, 20 – 24-бетлар.
17	Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. Учебник. Тошкент, ЎзДЖТИ, 2007, с. 311.
18	Ярашев К.Д. Жисмоний тарбия ва спортни бошқариш. Дарсларлик. Т., Ибн Сино нашриёти, 2002, 180 бет.
19	Султанов К.С. Диссертация ва авторефератларни расмийлаштириш қоидалари. Услубий қўлланма. Т., 25 бет.
20	Магистратура тўғрисидаги низом. 2012, Т., 27 бет.
21	Битирув малакавий ишларини тайёрлашга қўйиладиган талаблар. ОЎМТВнинг 2010 йил 9 июндаги 225-сонли буйруғи.

**Qaydlar uchun**

---

**Qaydlar uchun**

---

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	3
<b>I bob. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar.....</b>	4
1.1. Ilmiy tadqiqot olib borishning umumiy tavsifi.....	4
1.2. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarining maqsad va vazifalari.....	5
1.3. Tadqiqot mavzusini tanlash.....	6
1.4. Bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish.....	8
1.5. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va asosiy mazmuni.....	9
1.6. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash va ularning tahlili.....	15
1.7. Yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish.....	16
<b>II bob. Tadqiqot vazifasi, uslublari va ularni tashkil etish.....</b>	19
2.1. Tadqiqot vazifalari va uslublarini belgilash.....	19
2.2. Tadqiqotning vosita va uslublari.....	20
<b>III bob. Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.....</b>	29
3.1. Tadqiqotni yakunlash va shakllantirish.....	29
3.2. Tadqiqot ishiga xulosa qilish.....	34
3.3. Foydalanimagan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish.....	35
<b>Ilovalar.....</b>	38
Bitiruv malakaviy ishini yozish va rasmiylashtirishning asosiy qoidalari.....	38
Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.....	39
Titul varag‘ini rasmiylashtirish.....	39
Mundarijani shakllantirish.....	41
Foydalanimagan ilmiy-adabiy manbalarni rasmiylashtirish.....	42
Statistik materiallar, tahliliy va ishchi jadvallarini rasmiylashtirish.....	42
Ilovalarni rasmiylashtirish.....	44
Foydalanimagan manbalarni bayon qilish qoidalari.....	45
Bitiruv malakaviy ishini himoyaga tayyorlash tartibi.....	46

Tadqiqot ishiga beriladigan taqrizlarni tayyorlash.....	46
Bitiruv malakaviy ishini taqriziga talablar.....	47
Bitiruv malakaviy ishining himoya qilishga ruxsatini olish.....	48
Bitiruv malakaviy ishining ommaviy himoyasini o'tkazish qoidalari.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar.....	53

**Farhod Masharipov, Muyassar Masharipova**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI  
TAYYORLASH**  
(uslubiy qo‘llanma)

Muharrir: Yo‘ldoshev Ro‘zimboy  
Texnik muharrir: Sherali Yo‘ldoshev  
Musahhih: Tamara Turumova

UrDU noshirlilik bo‘limi O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining 2009-yil 19-avgustdagi №148 raqamli buyrug‘i bilan qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Terishga berildi: 22.12.2014.

Bosishga ruxsat etildi: 29.12.2014.

Offset qog‘ozzi. Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .

Tayms garniturasi. Adadi 50. Buyurtma №.57.

Hisob-nashriyot tabag‘i 2,4.

Shartli bosma tabag‘i 2,2.

UrDU noshirlilik bo‘limida tayyorlandi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko‘chasi, 14-uy.

Telefon: (0-362)-224-66-01.

UrDU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko‘chasi, 14-uy.

Telefon: (0-362)-224-66-01.

